



OLY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

TA'LIM TIZIMI MENEJMENTI
VA
TA'LIM SIFATI MENEJMENTI

2024

LIB.BIMM.UZ

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“TA'LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI AKKREDITATSIYADAN
O'TKAZISH TARTIBI VA REYTING BAHOLASH MEZONLARI”

**(“Ta'lim tizimi menejmenti” va “Ta'lim sifati menejmenti”
yo'nalishlari uchun)**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2024

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **Sh.Q.Nematov** – Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Taqrizchi: **S.B.Donaev**– Fizika-matematika fanlari doktori, dotsent.

O‘quv-uslubiy majmua Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(“28” dekabr 2023-yildagi 5/4 -sonli bayonoma)

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	5
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL O‘QITISH METODLARI	11
III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI	19
IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI	48
V. ADABIYOTLAR RO‘YXATI	63



I. ISHCHI DASTUR

ISHCHI DASTUR

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 34-moddasida Oliy ta’lim tizimining asosiy normativ hujjatlari, hususan, Davlat ta’lim standartlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqilishi ta’kidlangan [1]. Mazkur moddaning mazmun-mohiyati kadrlar tayyorlash tizimini mehnat bozori talablari asosida tashkil qilishga yo‘naltirilgan.

Mazkur moddaning ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning chiqishlarida va bir qancha qonunosti hujjatlarda o‘z aksini topgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta’lim tizimini mehnat bozoridagi talab va xalqaro andozalarga mos yangicha yondashuvlar asosida isloh qilish masalalari kun tartibiga qo‘yilgan [2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28 fevraldagi PF-27 sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili"da amalga oshirishga oid Davlat Dasturi”ning 37-maqсадida kasb va lavozimlarni Milliy malaka tizimi asosida takomillashtirish belgilab qo‘yilgan [3]. Shuni ta’kidlash kerakki, Milliy malakalar tizimi mehnat bozori ehtiyojlari va ta’lim tizimini o‘zaro muvofiqlashtiruvchi tizim bo‘lib, Milliy malakalar ramkasi, tarmoq malaka ramkalari va kasbiy standartlar bu tizimning asosiy elementlari hisoblanadi. [4].

Oliy ta’lim tizimi tomonidan yuqorida keltirilgan qonun va qonunosti hujjatlar ijrosini ta’minlash yuzasidan “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Standarti. Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”da oliy ta’lim bitiruvchilarining bilim, uquv, ko‘nikma va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar, ya’ni malaka talablari milliy malaka ramkasi, kasbiy standartlar, ish beruvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilanishi qayd qilingan [5].

Shuni ta’kidlash kerakki, Oliy ta’lim tizimida kasbiy kompetensiyalar hozirgi kunda faqat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarida aks ettirilgan bo‘lib, ular asosida fan modullari, o‘quv rejalar va fan dasturlarini ishlab chiqish belgilangan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar, davlat ta’lim standartlari va malaka talablarida belgilangan kasbiy kompetensiyalarni kasbiy standartlar asosida shakllantirish zarurligini taqozo qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi kunda Oliy ta'lim tizimidagi malaka talablari kasbiy standartlar va ularda qayd qilingan kasbiy kompetensiyalar (mehnat harakatlari) asosida ishlab chiqilmagan, davlat ta'lim standartlarini kasbiy standartlar asosida ishlab chiqish bo'yicha tajribalar va bu boradagi uslubiy ishlanmalar ham ommalashmagan. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ta'kidlanganiga qaramasdan, davlat ta'lim standartlarini kasbiy standartlar asosida ishlab chiqish deyarli yo'lga qo'yilmagan. O'tgan 3 yil mobaynida ishlab chiqilgan kasbiy standartlarning 48 foizi esa davlat ta'lim standartlari va malaka talablarini ishlab chiqish uchun yaroqli emasligi sababli dolzarblashtirishga tavsiya qilingan [6].

Bu ma'lumotlar kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasining tub ildizlari hali ta'lim tizimi mutasaddilari tomonidan chuqur o'rganishga muhtojligini bildiradi.

Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim dasturlarining malaka talablari, o'quv rejalari va fan dasturlarini shakllantirishda jiddiy muammolar yuzaga kelmoqda. Xususan, zarur fanlarning yetarli darajada o'qitilmasligi, zarur bo'lmagan umumta'lim fanlarining me'yordan ortiq rejalashtirilishi talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndirmoqda. Mutaxassislik fanlarini ixchamlashtirish jarayonlari va bu fanlar bo'yicha professor-o'qituvchilar shaxsiy yuklamasining keskin ortib ketishi ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Oliy ta'lim muassasalari rahbar xodimlari va dars beradigan professor-o'qituvchilarning o'qitilayotgan fanlar, ayniqsa umumta'lim fanlari talabaning kasbiy faoliyatida qanday ahamiyatga ega ekanligini bilmasligi ta'lim mazmunining izdan chiqishiga sabab bo'lmoqda. Kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarning tarmoq malaka kengashlarida chuqur tahlil qilinmasligi va o'qishga qabul kvotalarining mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olmasdan belgilanishi ta'lim tizimining maqsadini yo'qqa chiqaradi.

Bu holat oliy ta'lim mutasaddilari va professor-o'qituvchilarining asosiy e'tiborini ta'lim dasturlarini ish beruvchilarning talablari asosida ishlab chiqishga qaratishni va malaka oshirish tizimida bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasini ham kun tartibiga qo'yishni talab qiladi. Zero, bitiruvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish professor-o'qituvchilarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Rahbar xodimlarning malakasini oshirishda esa talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga o'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini oshirish masalalari ham muhim ahamiyatga ega.

Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarida bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida ushbu dasturda kasbiy kompetensiya tushunchasi, kasbiy kompetensiyalarning ish beruvchilar tomonidan belgilanishi, kasbiy kompetensiyalarni aniqlash usullari, milliy va xalqaro malaka tizimlaridagi bilim, ko'nika va kompetensiyalarga qo'yiladigan talablar, kompetensiyalarni baholash,

kompetensiyalarga zamonaviy yondashuv va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari bayon etilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarida oliy ta'lim tizimida amaldagi normativ-huquqiy va uslubiy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasini akkreditatsiya jarayoni orqali shakllantirish, ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish va oliy ta'lim tashkilotlarini reytingini aniqlash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Modulning vazifalari:

- ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartib va mezonlarini tahlil qilish;
- tinglovchilarni ta'lim tashkilotlarini ichki va tashqi baholash mexanizmlari bilan tanishtirish;
- ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirish;
- oliy ta'lim tashkilotlarining reytingini aniqlash bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish;
- ta'lim tashkilotlarining attestatsiyasi va davlat akkreditatsiyasi hamda oliy ta'lim tashkilotlari reytingi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar bilan tinglovchilarni tanishtirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Ta'lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi va reyting baholash mezonlari” modulini o'zlashtirish jarayonida:

Tinglovchi:

- ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi;
- ta'lim tashkilotlari yoki ta'lim dasturlarini (ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kasblar va kurslar) attestatsiya ko'rsatkichlari va mezonlari asosida baholash
- ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati va mazmunining davlat ta'lim standartlari va davlat talablariga muvofiqligini aniqlash;

- ta'lim tashkilotlarining faoliyatidagi mavjud muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish;
- ta'lim tashkilotlarini tashqi baholashdan o'tkazishga tayyorlash;
- yangi tashkil etilgan ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish;
- tibbiyot oliy ta'lim muassasalarini akkreditatsiyadan o'tkazish **bilimlarga ega bo'lishi**;

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Ta'lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi va reyting baholash mezonlari” moduli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

- kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi, shuningdek, ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, blits-so'rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim metodlarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Ta'lim muassasalari faoliyatini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi va reyting baholash mezonlari” moduli bo'yicha mashg'ulotlar o'quv rejasidagi “Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, “Talabalar bilimini baholash” hamda “Yo'nalishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari” kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar mehnat bozori talablari asosida kasbiy kompetensiyalarni aniqlash va ularni rivojlantirishga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg'ulot
1.	Ta'lim tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish	2	2	
2.	Ta'lim tashkilotlari tomonidan ichki baholashni tashkil etish	2	2	
3.	O'zbekiston Respublikasi hududida tan olinadigan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari va ularga qo'yilgan talablar	2		2
4.	Kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish axborot tizimi va ekspertlarga qo'yilgan talablar	2		2
5.	Respublika ta'lim tashkilotlarining milliy reyting baholash tizimini yuritish	2		2
	Jami:	10	4	6

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: TA'LIM TASHKILOTLARINI KOMPLEKS VA MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH (2 soat)

Kompleks va maxsus davlat akkreditatsiya tushunchasi. Xorijiy tajriba.

Kompleks va maxsus davlat akkreditatsiya oid va ta'lim jarayonini tartibga soluvchi normativ hujjatlar.

2-MAVZU: TA'LIM TASHKILOTLARI TOMONIDAN ICHKI BAHOLASHNI TASHKIL ETISH (2 soat)

Ichki baholashni tashkil etish bosqichlari. Zarur ma'lumotlarni olish, o'rganish, tahlil qilish va ichki baholash hisobotni tayyorlash.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA TAN OLINADIGAN XALQARO AKKREDITATSIYA TASHKILOTLARI VA ULARGA QO‘YILGAN TALABLAR (2 soat)

Xalqaro akkreditatsiya tashkilotlariga qo‘yilgan talablar. Xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan ta‘lim dasturlarini akkreditatsiya qilish.

2-MAVZU: KOMPLEKS VA MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH AXBOROT TIZIMI VA EKSPERTLARGA QO‘YILGAN TALABLAR (2 soat)

Kompetensiyalarni baholash indikatorlari. Oliy ta‘lim muassasalarida kasbiy malakalarni baholash. Milliy malaka tizimida kasbiy malakalarni baholash.

Malakalarni baholash vositalari.

3-MAVZU: RESPUBLIKA TA‘LIM TASHKILOTLARINING MILLIY REYTING BAHOLASH TIZIMINI YURITISH (2 soat)

Ta‘lim tashkilotlari faoliyati reyting ko‘rsatkichlari va ular bilan ishlash metodologiyasi, xalqaro reytinglarda munosib o‘rin egallash choralari.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma‘lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

-



II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

“KWHL” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?.

“KWHL” metodi	
- <i>Nimalarni bilaman:</i> -	<i>Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:</i>
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	<i>Nimalarni bilib oldim:</i>

“W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va biliimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mumkin)?	

What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to'ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



SWOT -таҳлили

Strengths	Weakness
Opportunities	Threats

- S-кучли томони
- W- кучсиз томони

- O- имконият
- T- тўсиқлар

Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot taʼminoti bilan tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni	✓ individual va guruhda ishlash;

aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	<ul style="list-style-type: none"> ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	<ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma'ruza mashg'ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o'rganishda, yangi ma'lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg'ulotlarda esa mavzu yoki ma'lumotlarni o'zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o'z-o'zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o'qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o'quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo'shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



Test

•

Muammoli vaziyat

Tushuncha tahlili (simptom)

Amaliy vazifa

“SCAMPER” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod muammolarni bartaraf etish bo‘yicha yangi innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. SCAMPER “tez yugurish” degan ma’noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 ta)ning har biridan 7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.

SCAMPER

SCAMPER		HAZORAT SAVOLLARI	SCAMPER SABABLARI SABABLARI SABABLARI
S	Substitute? - Заменить? Алмаштириш		
C	Combine? - Комбинировать? Бирлаштириш		
A	Adapt? - Адаптировать? Мослаштириш		
M	Modify? =Magnify? - Модифицировать? Модификация		
P	Put to other uses? - I Бошқа соҳаларда қўллаш		
E	Eliminate or minify? - қисқартириш		
R	Revers? =Rearrange? - тартибини ўзгартириш		

★ SCAMPER

32

Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish

SCAMPER savollari	SCAMPER savollari (yangi g'oyani ishlab chiqish)	Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish
S	Nima bilan almashtirish mumkin?	
C	Nima bilan birlashtirish mumkin?	
A	Nimaga moslashtirish kerak?	
M	Qanday yaxshilash mumkin?	
P	Nimalarni o'zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va boshqalar)	
E	Yana qanday holda qo'llash mumkin	
R	Nimani qayta tiklash mumkin?	

III. NAZARIY VA AMALIY
MASHG'ULOTLAR
MAZMUNI

II. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU: TA'LIM TASHKILOTLARINI KOMPLEKS VA MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH (2 soat)

O'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimi qabul qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023 yil 3 iyuldagi PQ-200-son qarori ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etilmoqda.

Quyidagilarni nazarda tutuvchi O'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini (keyingi o'rinlarda — ta'lim tashkilotlari) kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanib ijroga yo'naltirildi.

kompleks davlat akkreditatsiyasi har 4 yilda ta'lim tashkilotlarini tashqi baholash natijalari asosida, maxsus davlat akkreditatsiyasi kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan ta'lim dasturlarining ta'lim sifatini ichki ta'minlash kafolati bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar asosida o'quv jarayoni boshlanishidan oldin o'tkaziladi;

davlat akkreditatsiyasi o'tkazilishi natijasida ta'lim tashkilotining faoliyati tugatilgan, litsenziyasi bekor qilingan yoki ta'lim dasturi yopilgan taqdirda mazkur ta'lim tashkilotida tahsil olayotgan fuqarolarning ta'limni davom ettirishi davlat tomonidan kafolatlanadi;

vazirlik tomonidan tan olingan nufuzli xalqaro reyting tashkilotlarining amaldagi ro'yxatida birinchi 1000 talikka kirgan va so'nggi 5 yil davomida oliy ta'lim tashkilotlarining milliy reytingida birinchi 10 talik o'rinni egallagan oliy ta'lim tashkilotlari navbatdagi kompleks davlat akkreditatsiyasidan ozod qilinadi;

nodavlat ta'lim tashkilotlari faoliyatini davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishni vakolatli organi xabardor qilish tartibida amalga oshiriladi.

2024 yilga qadar bitiruvchisi bo'lmagan va akkreditatsiyadan o'tmagan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari oliy ta'lim

tashkilotini kompleks akkreditatsiyadan o'tkazish davrida maxsus akkreditatsiyadan o'tkaziladi;

yangi tashkil etilgan va maxsus akkreditatsiyadan o'tgan o'quv dasturlari birinchi kompleks akkreditatsiyadan o'tgunga qadar akkreditatsiyalangan deb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tmagan va aniqlangan kamchiliklarni 6 oy muddatda bartaraf etmagan ta'lim tashkiloti faoliyatini tugatish (litsenziyasini bekor qilish) to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga asoslangan taklif kiritib boradi;

faoliyatini tugatish, litsenziyasi bekor qilish va o'quv dasturini yopish bo'yicha qaror qabul qilingan ta'lim tashkilotlari talabalarining o'qishini davlat va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklariga belgilangan tartibda ko'chirish choralarini ko'radi.

Idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shakllaridan qat'i nazar, o'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari (keyingi o'rinlarda – ta'lim tashkilotlari)ni **kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasi** (keyingi o'rinlarda – kompleks akkreditatsiya, maxsus akkreditatsiya)dan o'tkazish tartibi belgilandi.

Ta'lim tashkilotlarini kompleks va maxsus akkreditatsiyadan o'tkazish mazkur Nizomda belgilangan talablar asosida, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) tomonidan amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlari tarkibidagi filiallar va oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlari kompleks akkreditatsiyasi ta'lim tashkilotlari bilan bir vaqtda o'tkaziladi.

1. Ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyasidan o'tkazishning asosiy maqsadi:

ta'lim tashkilotlarining sifatni takomillashtirish faoliyatini qo'llab-quvvatlash va sifat madaniyatini shakllantirishga har tomonlama ko'maklashish;

ta'lim tashkilotlarining sifatni ta'minlash va yanada yaxshilash bo'yicha mas'uliyati va hisobdorligini oshirish;

ta'lim oluvchilar va jamoatchilikni sifatsiz ta'lim xizmatlaridan himoya qilish; bitiruvchilarning malaka va ko'nikmalari to'g'risida mehnat bozorini xabardor qilish;

muayyan minimal sifat talablariga rioya etilishini kafolatlash;

keng jamoatchilikni ta'lim tashkilotlari mehnat bozori talablariga muvofiq va sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatayotganligiga ishonch hosil qildirish;

beriladigan kvalifikatsiyani belgilangan maqsadga muvofiqligini ta'minlash;

ta'lim tashkilotlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish asosida jahon ta'lim makoniga integratsiya qilish.

2. Ta'lim tashkilotlari kompleks va maxsus akkreditatsiyadan o'tish bo'yicha ariza topshirish vaqtida quyidagi talablarga javob berishi kerak:

ta'lim tashkilotlari ta'lim faoliyatini olib borish uchun tegishli davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda litsenziya talablariga to'liq javob berishi;

ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan faoliyatida qonun buzilish holatlari tekshiruv yoki tergov ostida bo'lmasligi;

kompleks akkreditatsiyadan o'tish uchun ta'lim dasturlari bo'yicha bitiruvchilarning mavjud bo'lishi.

3. Kompleks akkreditatsiya – ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholashda davlat nazoratining asosiy shakli bo'lib, kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablariga hamda ta'lim dasturlariga muvofiqligini aniqlash va ularning bitiruvchilariga beriladigan hujjatlarni davlat tomonidan e'tirof etishdan iborat.

Maxsus akkreditatsiya – kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan o'quv dasturi bo'yicha o'qitishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik, axborot va o'quv-metodik bazalarga, pedagog kadrlarga, ta'lim hajmi va mazmuniga hamda boshqa talablarga rioya etilishi yuzasidan ta'lim tashkilotining ta'lim sifatini ta'minlash kafolatini davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ushbu ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlash huquqini berishdan iborat.

Maxsus akkreditatsiya kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan o'rta maxsus, professional, oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin o'tkaziladi.

Maxsus akkreditatsiyadan o'tmagan ta'lim dasturlari qabul parametrlarini shakllantirishda inobatga olinmaydi, talaba va o'quvchilarni o'qitishga yo'l qo'yilmaydi.

Xalqaro akkreditatsiya – xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarining reestriga kiritilgan, O'zbekiston Respublikasida tan olinadigan tashkilotlar tomonidan ta'lim dasturlarini akkreditatsiyadan o'tkazishdan iborat.

Ta'lim tashkilotlarining xorijiy yoki mustaqil ishlab chiqilgan ta'lim dasturlarining xalqaro akkreditatsiyadan o'tganligi ularning bitiruvchilariga davlat namunasidagi ta'lim to'g'risidagi hujjat berilishiga asos bo'lmaydi.

4. Kompleks va maxsus, xalqaro akkreditatsiyaning asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi:

mustaqillik;

oshkoralik;

xolislik;

davriylik va izchillik;
sifatni uzluksiz yaxshilash;
inklyuzivlik;
shaffoflik;
professionalizm.

5. Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyadan o'tkazish quyidagi bosqichlardan iborat:

a) kompleks akkreditatsiyada:

kompleks akkreditatsiyadan o'tkazish uchun ariza qabul qilish;

ta'lim tashkilotlarining faoliyatini ichki baholash;

kompleks akkreditatsiyadan o'tkazish jarayoniga tayyorgarlik ko'rish, ekspertlarni tanlab olish, o'qitish va ekspert komissiyalarini ta'lim turlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ixtisosliklar, kurslar va kasblarni hisobga olgan holda shakllantirish;

ichki baholash natijalari asosida ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashqi baholash;

tashqi baholash natijalarini tahlil qilish;

tashqi baholash natijalari asosida ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilish;

aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ta'lim sifatini yanada yaxshilash bo'yicha izchil va muntazam chora-tadbirlarni amalga oshirish (postakkreditatsiya monitoringi).

b) maxsus akkreditatsiyada:

maxsus akkreditatsiyadan o'tkazish uchun ariza qabul qilish;

maxsus akkreditatsiyadan o'tkazish jarayoniga tayyorgarlik ko'rish, ekspertlarni tanlab olish, o'qitish va ekspert komissiyalarini ta'lim turlari, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar va kasblarni hisobga olgan holda shakllantirish;

ta'lim tashkilotlarini tashqi baholashdan o'tkazish va uning natijalarini tahlil qilish;

tashqi baholash natijalariga ko'ra ta'lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan o'tkazish bo'yicha qaror qabul qilish.

6. Xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarini ro'yxatga olish quyidagi bosqichlardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat olib borish uchun Vazirlikka belgilangan tartibda ariza bilan murojaat qilish;

vazirlik tomonidan xalqaro akkreditatsiya tashkiloti faoliyatining belgilangan talablarga muvofiqligini o'rganish;

o'rganish natijalari asosida xalqaro akkreditatsiya tashkilotini reestrغا kiritish yoki kiritmaslik bo'yicha qaror qabul qilish (ijobiy qaror qabul qilinmaganda arizachiga sababini ko'rsatgan holda yozma javob beriladi).

Reestrغا kiritilgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari faoliyati uch yil muddatga amal qiladi.

7. Ta'lim tashkilotlarining davlat akkreditatsiyasi to'lov asosida Vazirlik tomonidan o'tkaziladi, davlat akkreditatsiyasi bilan bog'liq xarajatlar ta'lim tashkilotlarining budjet va budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlarining kompleks va maxsus akkreditatsiyasi Vazirlik tomonidan o'tkaziladi hamda akkreditatsiyadan o'tkazganlik uchun quyidagi miqdorlarda yig'im undiriladi:

o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha tegishliligiga ko'ra tashqi baholashga jalb etiladigan har bir ta'lim yo'nalishi va kasb uchun – bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari;

oliy ta'lim bo'yicha tashqi baholashga jalb etiladigan har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassislik uchun – bazaviy hisoblash miqdorining o'n ikki baravari;

oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'yicha tashqi baholashga jalb etiladigan har bir ixtisoslik uchun – bazaviy hisoblash miqdorining olti baravari;

malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'limi bo'yicha tashqi baholashga jalb etiladigan har bir kurs uchun – bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari-

8. Ta'lim tashkilotlarini kompleks va maxsus akkreditatsiyadan o'tkazganlik uchun yig'im Vazirlikning budjetdan tashqari hisob raqamiga o'tkaziladi va akkreditatsiya bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun yo'naltiriladi.

9. Vazirlikda tashqi baholashdan o'tuvchi har bir ta'lim tashkiloti bo'yicha kompleks va maxsus akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan alohida hujjatlar yig'majildlari yig'iladi. Unda quyidagilar jamlanadi:

ta'lim tashkilotlarini tashqi baholashdan o'tkazish jadvali;

ekspert komissiyasi tasdiqlanganligi bo'yicha hujjat (buyruq yoki qaror);

tashqi baholash natijalari bo'yicha ekspert komissiyasi xulosasi;

akkreditatsiya komissiyasi bayoni (yoki bayonidan ko'chirma);

akkreditatsiya bo'yicha Vazirlik buyrug'i;

zaruratga ko'ra kompleks akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlar.

Hujjatlar yig'majildi navbatdagi kompleks akkreditatsiyadan o'tkazilgunga qadar Vazirlikda saqlanadi.

Ta'lim tashkilotlarini kompleks akkreditatsiyadan o'tkazish Ariza topshirish

1. Ta'lim tashkilotlari tomonidan akkreditatsiya muddati tugaydigan yildan oldingi yilning 1 iyuliga qadar, kompleks akkreditatsiyadan o'tkazish to'g'risida ariza vazirlikning rasmiy veb-sayti orqali elektron shaklda taqdim etiladi. Arizalar besh ish kunida ko'rib chiqiladi.

2. Ta'lim tashkilotlarining kompleks akkreditatsiyadan o'tkazish to'g'risidagi arizasiga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

ta'lim tashkilotining to'liq va qisqartirilgan nomi, joylashgan joyi, telefon raqami;

internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-sayti va elektron pochta manzili to'g'risidagi ma'lumot;

kompleks akkreditatsiyadan o'tkaziladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ixtisosliklar, kurslar va kasblar ro'yxati.

Filiallari va oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutlari mavjud bo'lgan ta'lim tashkilotlari ma'lumotlarni ular bo'yicha ham taqdim etadi.

3. Quyidagi hollarda arizani ko'rib chiqish rad etilishiga asos bo'ladi:

zarur bo'lgan hujjatlarning to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilganligi;

taqdim etilgan hujjatlarda yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlarning mavjudligi;

talabgorning tegishli faoliyat bilan shug'ullanishi sudning qaroriga asosan muayyan muddatga taqiqlanganligi;

bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ixtisosliklar va kasblarning klassifikatorda mavjud emasligi.

Boshqa asoslarga ko'ra arizalarni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

4. Ariza rad etilganda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun besh ish kunigacha muddat beriladi.

5. Ta'lim tashkiloti ariza rad etilishi uchun asos bo'lgan sabablarni belgilangan muddatda bartaraf etgan taqdirda, rad etish sabablari bartaraf etilganligi to'g'risidagi ariza va rad etish sabablari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni Vazirlikka taqdim etadi.

Ta'lim tashkilotining rad etish sabablari bartaraf etilganligi to'g'risidagi arizasi va rad etish sabablari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar ular olingan kundan e'tiboran o'n ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda Vazirlik tomonidan takroran ko'rib chiqiladi.

6. Hujjatlar ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etmasdan yoki belgilangan muddat o'tgandan keyin taqdim etilgan taqdirda, vazirlik arizani rad etish haqida qaror qabul qilishga haqli.

7. Arizani yangi asoslar bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'lim tashkiloti ariza rad etilganligi, shuningdek, Vazirlik mansabdor shaxsining arizani ko'rib chiqish tartib-taomillari bilan bog'liq harakati (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Tashqi baholashdan o'tkazish

1. Tashqi baholash jarayonida ta'lim turlari bo'yicha ta'lim tashkilotlarining oxirgi ikki yillik faoliyatini kompleks tahlil qilish quyida berilgan baholash sohalari bo'yicha o'rganiladi:

a) o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida:

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
ta'lim sifati va samaradorligi;
pedagog kadrlar salohiyati;
o'quvchilarning yutuqlari;
ma'naviy-ma'rifiy va sport ishlari;
moddiy-texnik ta'minot.

b) professional ta'lim tashkilotlarida:

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
ta'lim sifatini ta'minlash;
pedagog kadrlar salohiyati;
ta'lim dasturlari;
kasbga yo'naltirish va qabul parametrlarni bajarilishi;
ma'naviy-ma'rifiy ishlar;
moddiy-texnik ta'minot.

v) oliy ta'lim tashkilotlarida:

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
ta'lim dasturlari va ta'lim sifati;
inson resurslari;
ilmiy-tadqiqot ishlari;
talabalarni qo'llab-quvvatlash;
moddiy-texnik ta'minot;
ta'lim tashkilotining hudud va respublikaning rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi.

g) oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi ilmiy va ta'lim tashkilotlarida:

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
ilmiy faoliyat samaradorligi;
ilmiy-tadqiqot, moddiy-texnik baza;
izlanuvchilar faoliyati monitoringi va o'z vaqtida himoya ko'rsatkichi.

d) kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlarida:

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
davlat ta'lim talablarining o'quv jarayoniga joriy etilishi;
moddiy-texnik ta'minot;
pedagog kadrlar salohiyati;
ta'limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi hamda xalqaro hamkorlik faoliyati;
tinglovchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari.

2. Ta'lim tashkilotlari baholash sohalari kesimida kompleks akkreditatsiyadan o'tkazish mazkur nizomga 1-ilovada, maxsus akkreditatsiyadan o'tkazish mazkur nizomga 2-ilovada keltirilgan baholash mezonlari asosida tashqi baholashdan o'tkaziladi.

3. Ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashqi baholashning joyiga chiqqan holda o'rganish jarayoni quyidagi muddatlarda o'tkaziladi:

o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida – 5 ish kunigacha;

professional ta'lim tashkilotlarida – 5 ish kunigacha;

oliy ta'lim tashkilotlarida – 10 ish kunigacha;

oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi ilmiy va ta'lim tashkilotlarida – 5 ish kunigacha;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlarida – 5 ish kunigacha.

4-§ Tashqi baholash yakunlari

1. Tashqi baholash natijalari asosida ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim tashkilotida kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda ta'lim dasturlariga muvofiqligi haqida xulosa tayyorlanadi.

2. Ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash natijalari va boshqa taqdim etilgan hujjatlarda haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlarning aniqlanishi ta'lim tashkilotlarining (o'quv dasturlarining) "tashqi baholashdan o'tmadi" deb e'tirof etilishiga sabab bo'ladi.

3. Ekspert komissiyalari tomonidan o'tkazilgan tashqi baholash natijalari bo'yicha quyidagi xulosalardan biri qabul qilinadi:

a) o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida

O'rta maxsus ta'lim tashkilotlari faoliyatini baholashda har bir baholash sohasi alohida ahamiyatga ega bo'lib:

tashkiliy-boshqaruv faoliyati, ma'naviy-ma'rifiy va sport ishlari, moddiy-texnik ta'minoti baholash sohalari bo'yicha litsey kesimida;

ta'lim sifati va samaradorligi, pedagog kadrlar salohiyati, o'quvchilarining yutuqlari bo'yicha ta'lim yo'nalishlari kesimida baholanadi.

Tashqi baholashga jalb etilgan ta'lim yo'nalishlarining 50 va undan ko'p foizi tashqi baholashdan o'tgan o'rta maxsus ta'lim tashkilotlari "tashqi baholashdan o'tdi", 50 dan kam foizi tashqi baholashdan o'tganda "tashqi baholashdan o'tmadi" deb e'tirof etiladi.

"Tashqi baholashdan o'tdi" deb e'tirof etilgan o'rta maxsus ta'lim tashkilotining tashqi baholashdan o'tmagan ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilish to'xtatiladi.

Kompleks akkreditatsiya komissiyasi tomonidan "tashqi baholashdan o'tmadi" deb e'tirof etilgan o'rta maxsus ta'lim tashkilotiga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun 6 oygacha muddat beriladi.

Belgilangan muddatda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etmagan davlat o'rta maxsus ta'lim tashkiloti ijrochi direktori va direktor o'rinbosarlarining malakasi yetarli emas deb topiladi hamda ish beruvchi tomonidan ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Shu bilan birga, davlat o'rta maxsus ta'lim tashkiloti faoliyatini tugatish yoki boshqa oliy ta'lim tashkiloti tizimiga o'tkazish, nodavlat o'rta maxsus ta'lim tashkiloti uchun litsenziyasini bekor qilish masalasi vakolatli davlat organlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

b) professional ta'lim tashkilotlarida

Tashqi baholashga jalb etilgan kasb va mutaxassisliklarning 55 va undan ko'p foizi tashqi baholashdan o'tgan professional ta'lim tashkilotlari "tashqi baholashdan o'tdi", 55 dan kam foizi tashqi baholashdan o'tganda "tashqi baholashdan o'tmadi" deb e'tirof etiladi.

"Tashqi baholashdan o'tdi" deb e'tirof etilgan professional ta'lim tashkilotining tashqi baholashdan o'tmagan kasb yoki mutaxassisliklar bo'yicha o'quvchilarni o'qishga qabul qilish to'xtatiladi.

Kompleks davlat akkreditatsiyasi komissiyasi tomonidan "tashqi baholashdan o'tmadi" deb e'tirof etilgan professional ta'lim tashkilotiga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun 6 oygacha muddat beriladi.

Belgilangan muddatda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etmagan davlat professional ta'lim tashkiloti direktori va direktor o'rinbosarlarining malakasi yetarli emas deb topiladi hamda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Shu bilan birga professional ta'lim tashkiloti faoliyatini tugatish (litsenziyasini bekor qilish) vakolatli davlat organlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Yuqoridagi shartlarga muvofiq, nodavlat o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida rahbar va o'rinbosarlari bilan tuzilgan mehnat shartnomasining belgilangan tartibda bekor qilinishi bo'yicha Muassisga taqdimnoma kiritiladi.

v) oliy ta'lim tashkilotlarida

Tashqi baholashga jalb etilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarning umumiy soniga nisbatan 60 va undan ko'p foizi "tashqi baholashdan o'tdi" deb xulosa qilinsa, oliy ta'lim tashkiloti "tashqi baholashdan o'tdi", 60 dan kam foizi tashqi baholashdan o'tganda "tashqi baholashdan o'tmadi" deb e'tirof etiladi.

"Tashqi baholashdan o'tdi" deb e'tirof etilgan oliy ta'lim tashkilotining tashqi baholashdan o'tmagan o'quv dasturlari yopiladi.

Kompleks akkreditatsiyadan o'tmagan ta'lim tashkilotiga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun 6 oygacha muddat beriladi.

Belgilangan muddatda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etmagan ta'lim tashkiloti faoliyatini tugatish (litsenziyasini bekor qilish) yoki o'quv dasturini yopish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Bunda, faoliyati tugatilgan (litsenziyasi bekor qilingan) ta'lim tashkiloti yoki yopilgan o'quv dasturida tahsil olayotgan talabalarga o'qishini davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarining mos va turdosh bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga belgilangan tartibda ko'chirish huquqi beriladi.

g) oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi ilmiy va ta'lim tashkilotlarida

Tashqi baholashga jalb etilgan ixtisosliklarning 25 va undan ko'p foizi tashqi baholashdan oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi ilmiy va ta'lim tashkilotlari "tashqi baholashdan o'tdi", 25 dan kam foizi tashqi baholashdan o'tganda "tashqi baholashdan o'tmadi" deb e'tirof etiladi.

"Tashqi baholashdan o'tdi" deb e'tirof etilgan oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi ilmiy va ta'lim tashkilotining tashqi baholashdan o'tmagan ixtisosliklari bo'yicha izlanuvchilarni qabul qilish to'xtatiladi.

Kompleks akkreditatsiyadan o'tmagan ta'lim tashkilotiga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun 6 oygacha muddat beriladi.

Belgilangan muddatda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etmagan ta'lim tashkiloti faoliyatini tugatish (litsenziyasini bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilinadi.

d) kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlarida

Tashqi baholashga jalb etilgan yo'nalishlarning umumiy soniga nisbatan 60 va undan ko'p foizi "tashqi baholashdan o'tdi" deb xulosa qilinsa, ta'lim tashkiloti "tashqi baholashdan o'tdi", 60 foizdan kam bo'lsa "tashqi baholashdan o'tmadi" deb e'tirof etiladi.

"Tashqi baholashdan o'tdi" deb e'tirof etilgan kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotining tashqi baholashdan o'tmagan yo'nalishlari bo'yicha tinglovchilarni qabul qilish to'xtatiladi.

Kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tmagan ta'lim tashkilotiga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun 6 oygacha muddat beriladi.

Belgilangan muddatda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etmagan ta'lim tashkiloti faoliyatini tugatish (litsenziyasini bekor qilish) masalasi vazirlik taqdimnomasi asosida vakolatli davlat organlari tomonidan ko'rib chiqiladi.

Ta'lim tashkilotlarini maxsus akkreditatsiyasidan o'tkazish uchun faoliyatiga baho berish

Ariza topshirish

1. Maxsus akkreditatsiya ta'lim tashkilotlarining arizasiga muvofiq har yili 1 martga qadar o'tkaziladi. Bunda, ta'lim tashkilotlari qoida tariqasida har yili 1 noyabrga qadar ariza bilan Vazirlikka murojaat etadi. Arizalar 1 oy muddatda ko'rib chiqiladi.

Maxsus akkreditatsiyadan o'tmagan o'quv dasturlari (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ixtisosliklar, kurslar va kasblar) qabul parametrlarini shakllantirishda inobatga olinmaydi va kadrlar tayyorlashga yo'l qo'yilmaydi.

2. Ta'lim tashkilotlari tomonidan ariza bilan birga, ushbu Nizom talablaridan kelib chiqib, ta'lim tashkilotining maxsus akkreditatsiyadan o'tkaziladigan o'quv dasturlari (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ixtisosliklar, kurslar va kasblar) bo'yicha ma'lumotlar, material (ichki hisobot, jadval)lar va jarayonga oid boshqa hujjatlar elektron shaklda taqdim etiladi.

3. Quyidagi hollarda arizani ko'rib chiqish rad etilishiga asos bo'ladi:
zarur bo'lgan hujjatlarning to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilganligi;
taqdim etilgan hujjatlarda yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlarning mavjudligi;
talabgorning tegishli faoliyat bilan shug'ullanishi sudning qaroriga asosan muayyan muddatga taqiqlanganligi;

kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan o'quv dasturlari (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ixtisosliklar, kurslar va kasblar)ning milliy va xalqaro klassifikatorda mavjud emasligi.

Boshqa asoslarga ko'ra arizalarni rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

4. Arizani birinchi marta ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun 3 kun muddat beriladi.

5. Kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi xabarnoma yuborilgan taqdirda, arizani ko'rib chiqish muddati xabarnomada ko'rsatilgan muddatga to'xtatib turiladi.

6. Ta'lim tashkiloti ariza rad etilishi uchun asos bo'lgan sabablarni belgilangan muddatda bartaraf etgan taqdirda, rad etish sabablari bartaraf etilganligi to'g'risidagi ariza va rad etish sabablari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlarni Vazirlikka taqdim etadi.

Ta'lim tashkilotining rad etish sabablari bartaraf etilganligi to'g'risidagi arizasi va rad etish sabablari bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar ular olingan kundan e'tiboran o'n ish kundan ko'p bo'lmagan muddatda Vazirlik tomonidan takroran ko'rib chiqiladi.

7. Hujjatlar ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etmasdan yoki belgilangan muddat o'tgandan keyin taqdim etilgan taqdirda, vazirlik arizani rad etish haqida qaror qabul qilishga haqli.

8. Arizani yangi asoslar bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Ta'lim tashkiloti ariza rad etilganligi, shuningdek, Vazirlik mansabdor shaxsining arizani ko'rib chiqish tartib-taomillari bilan bog'liq harakati (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Tashqi baholashdan o'tkazish

1. Ta'lim dasturlarini maxsus akkreditatsiyadan o'tkazish ekspert komissiyalari tomonidan joyiga chiqqan holda, uch ish kundan ortmagan muddatda amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholashda ekspert komissiyalari tomonidan tegishli ta'lim tashkilotlariga bormay, ular tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar va materiallarni o'rganish asosida ham amalga oshirilishi mumkin.

2. Tashqi baholash jarayonida ta'lim turlari bo'yicha quyida berilgan baholash sohalari asosida o'rganiladi:

a) o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida:

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
ta'lim sifatini ta'minlash;
pedagogik kadrlar ta'minoti;
ma'naviy-ma'rifiy va sport ishlari;
moddiy-texnik ta'minot.

b) professional ta'lim tashkilotlarida:

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
o'quv dasturlari;
ta'lim sifatini ta'minlash;
pedagogik kadrlar ta'minoti;
moddiy-texnik ta'minot.

v) oliy ta'lim tashkilotlarida:

tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
o'quv dasturlari;
ta'lim sifatini ta'minlash;
inson resurslari;
moddiy-texnik ta'minot;
talabalar uchun yaratilgan sharoitlar.

Tashqi baholash yakunlari

Ekspert komissiyalari tomonidan o'tkazilgan tashqi baholash natijalariga asosan o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan har bir ta'lim dasturlari (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va kasblar) bo'yicha maxsus akkreditatsiya mezonlariga "Mos keladi" yoki "Mos kelmaydi" deb xulosa qilinadi.

Ta'lim tashkilotlarini attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi



O'rta maxsus, professional, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish MEZONLARI

I. O'rta maxsus ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

akademik litsey istiqbol rejasining mavjudligi va uning bajarilishi;
pedagogik kengash rejasining mavjudligi va ularni akademik litseyning istiqbol rejasiga mos ravishda ishlab chiqilganligi hamda ijrosi yuzasidan hisobotlarning yuritilishi;

boshqa oliy ta'lim tashkilotlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilganligi;

o'quvchilar qabulini tashkil etish, iqtidorli o'quvchilarni tanlab olish (seleksiya) bo'yicha ishlarning olib borilganligi;

akademik litsey faoliyati yuzasidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma natijalari bo'yicha o'quvchi va pedagoglar uchun yaratilgan sharoit, ta'lim sifatidan qoniqish darajasi (*akkreditatsiya jarayonida o'tkazilgan so'rovnoma asosida*).

Ta'lim sifati va samaradorligi:

davlat ta'lim standarti hamda ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, namunaviy o'quv reja va dasturlarning mavjudligi;

ishchi o'quv rejaning namunaviy o'quv rejaga muvofiq ishlab chiqilganligi;

fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlarining namunaviy o'quv dasturlarga muvofiq ishlab chiqilganligi;

dars jadvalining ishchi o'quv rejaga muvofiq ishlab chiqilganligi;

axborot-resurs markazida (kutubxonada) zaruriy darslik, badiiy adabiyot va elektron darsliklarning mavjudligi, fanlarning o'quv adabiyotlari bilan yetarlicha ta'minlanganligi;

o'quvchilarni baholash tizimining belgilangan mezon va me'yorlarga asosan amalga oshirilishi;

o'quvchilarning to'plagan reyting ballarini Hemis tizimiga o'z vaqtida kiritilganligi va monitoringi.

Pedagog kadrlar salohiyati:

pedagog kadrlar tayanch ma'lumotining dars berayotgan fanlariga mosligi;

ilmiy daraja va unvonga, fanlarni bilish darajasi bo'yicha sertifikat hamda toifaga ega, shuningdek o'quv adabiyot (*darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma*)lari nashr etgan rahbar va pedagoglar salmog'i;

o'quv jarayoniga zamonaviy o'qitish uslublari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi (*dars tahlillari asosida*);

pedagog kadrlarning belgilangan muddatlarda malakasini oshirganligi;

akademik litsey bitiruvchilariga kasbiy ta'lim berilishining sifati;

oliy ta'lim tashkilotining turdosh ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarning akademik litsey o'quv dasturidagi tegishli fanlar bilan unifikatsiya qilinganligi, unifikatsiya qilingan fanlar o'quv mashg'ulotlari oliy ta'lim tashkiloti professor-o'qituvchilari tomonidan olib borilayotganligi;

pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholash tizimining mavjudligi va shu asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning tashkil etilganligi.

O'quvchilarning yutuqlari:

bitiruvchilarning oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirish holati (*so'nggi ikki yillik dinamikasi tahlili asosida*);

respublika va xalqaro fan olimpiadalarida ishtirok etish holati va ularda sovrindor bo'lgan o'quvchilar salmog'i hamda ularning rag'batlantirilganligi.

Ma'naviy-ma'rifiy va sport ishlari:

ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasining mavjudligi, mazmuni hamda unda belgilangan tadbirlarning bajarilishi;

viloyat (shahar), respublika va xalqaro miqyosdagi ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ko'rik-tanlovlar va sport musobaqalarida erishilgan natijalar;

besh muhim tashabbus bo'yicha amalga oshirilgan ishlar;

o'quvchilarning ota-onalari bilan ishlash samaradorligi, voyaga yetmagan o'quvchilarning profilaktik ro'yxatga olinganligi va ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning holati;

yotoqxonada (mavjud bo'lsa) ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarining tashkil etilganligi.

Moddiy-texnik ta'minot:

ta'lim jarayonini tashkil etish uchun zaruriy jihozlarning yetarliligi, o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanganligi;

fizika, kimyo va biologiya fanlari uchun laboratoriya xonalarining mavjudligi va jihozlanishi (reaktiv moddalar bilan ta'minlanganligi), laboratoriya ishlarining bajarilishi va metodik ko'rsatmalar bilan ta'minlanganligi;

sport zali va maydonlarning mavjudligi, sport inventarlari bilan ta'minlanganligi amaldagi me'yoriy talablarga mosligi.

II. Professional ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

ta'lim turi bo'yicha amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning professional ta'lim tashkiloti boshqaruviga tatbiq etilganligi;

professional ta'lim tashkiloti istiqbol rejasining mavjudligi va uning bajarilishi; pedagogik kengash rejasining mavjudligi va ularni ta'lim muassasasi istiqbol rejasiga mos ravishda ishlab chiqilganligi hamda ijrosi yuzasidan hisobotlarning yuritilishi;

professional ta'lim tashkiloti faoliyati yuzasidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma natijalari bo'yicha o'quvchi va pedagoglar uchun yaratilgan sharoit, ta'lim sifatidan qoniqish darajasi (*akkreditatsiya jarayonida o'tkazilgan so'rovnoma asosida*).

Ta'lim sifatini ta'minlash:

kasb va mutaxassisliklar bo'yicha malaka talabi, namunaviy o'quv reja va dasturlarini mavjudligi;

ishchi o'quv rejaning namunaviy o'quv rejaga muvofiq ishlab chiqilganligi hamda ish beruvchilar bilan kelishgan holda tasdiqlanganligi;

fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlarining namunaviy o'quv dasturlari hamda ish beruvchilar takliflari asosida ishlab chiqilganligi;

dars jadvalining ishchi o'quv rejaga muvofiq ishlab chiqilganligi;
umumkasbiy va maxsus fanlardan o'quv adabiyotlar yoki o'qitish materiallari to'plamlarini mavjudligi;

axborot-resurs markazida (kutubxonada) zaruriy o'quv adabiyotlar, badiiy, siyosiy adabiyotlar mavjudligi;

baholash tizimining belgilangan mezon va me'yorlarga asosan amalga oshirilishi.

Pedagog kadrlar salohiyati:

pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi va ularning sifat tarkibi;

pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholash tizimining mavjudligi va shu asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning tashkil etilganligi;

pedagog kadrlarning belgilangan muddatlarda malakasini oshirganligi.

Ta'lim dasturlari:

ta'lim tashkiloti tegishli manfaatdor tomonlarni jalb qilgan holda ta'lim dasturlarini belgilangan talablar asosida ishlab chiqqanligi;

namunaviy o'quv reja va dasturlar asosida ishchi o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqilganligi hamda ish beruvchilar bilan kelishilganligi;

o'quv jarayoni grafigini ishlab chiqilganligi va shu asosida ta'lim jarayonini tashkil etilganligi;

kasb va mutaxassisliklar kesimida bitiruvchilarning so'nggi ikki yilda o'z sohasi bo'yicha ishga joylashish (60 foizdan kam bo'lmasligi kerak) ko'rsatkichlari.

Kasbga yo'naltirish va qabul parametrlarni bajarilishi:

kasbga yo'naltirish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligi;

qabul parametrlarini bajarilganligi;

kasb va mutaxassisliklar bo'yicha ish beruvchilar bilan hamkorlikda amaliyotlarni tashkil etilganligi;

bitiruvchilarni ish beruvchilar tomonidan yakuniy baholanishini yo'lga qo'yilganligi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar:

ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasining mavjudligi, mazmuni hamda unda belgilangan tadbirlarning bajarilishi;

viloyat (shahar), respublika va xalqaro miqyosdagi ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ko'rik-tanlovlarda erishilgan natijalar;

besh muhim tashabbus bo'yicha amalga oshirilgan ishlar;

voyaga yetmagan o'quvchilarning profilaktik ro'yxatga olinganligi va ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning holati (kasb-hunar maktablari uchun);

yotoqxonada (mavjud bo'lsa) ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarining tashkil etilganligi.

Moddiy-texnik ta'minot:

tayyorlanayotgan kasb va mutaxassisliklar bo'yicha moddiy-texnika ta'minoti mavjudligi;

kasb va mutaxassisliklar bo'yicha amaliyotlar uchun zaruriy xom ashyo materiallari bilan ta'minlanganligi;

o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanganligi; sport zali va maydonlarning mavjudligi, sport inventarlari bilan ta'minlanganligi.

III. Oliy ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasi ishlab chiqilganligi, uning ta'lim tashkilotini rivojlantirishga, xalqarolashtirishga, moddiy-texnik ta'minotni yaxshilashga, xodimlar va talabalarga yetarli shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi;

strategik rejalashtirishda ta'lim tashkiloti missiyasi va maqsadlari, milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro yo'riqnomalarning inobatga olinganligi;

strategik rejani amalga oshirishning monitoringi va erishilgan natijalarning samaradorligi;

strategik rejada ta'lim tashkilotining barcha faoliyat sohalarida innovatsiyaning qo'llab-quvvatlanishi va rag'batlantirilishi aks etganligi;

ta'lim tashkiloti faoliyatini boshqarishda va rivojlantirishda uzoq va o'rta muddatli strategik rivojlantirish dasturining mavjudligi hamda amalga oshirilishini nazorat qilishda barcha manfaatdor tomonlarning ishtiroki va hamkorligi;

ta'lim tashkiloti faoliyatida manfaatdor tomonlar, rahbariyat, xodimlar, kadr iste'molchilari, talabalar o'zini o'zi boshqarish organlarining ishtiroki, ularning vakolatlari, vazifalari, huquq va majburiyatlarining aniq belgilab berilganligi;

ta'lim tashkilotida sohalar bo'yicha ta'lim va bandlikka bo'lgan ehtiyojning monitoringini yuritish jarayoni mavjudligi;

ta'lim tashkiloti bitiruvchilarining kelgusi professional faoliyati, erishgan yutuqlari va tajribalarini o'z rasmiy veb-saytlarida joylashtirib borilishi, ular bilan talabalar o'rtasida aloqa o'rnatilganligi;

ta'lim tashkiloti faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning, xususan, ta'lim dasturlari, ularning amalga oshirilishi, ushbu dasturlarning sohalar va fanlar bo'yicha ilmiy-tadqiqot yoki kasbiy faoliyatga oid ma'lumotlarning mavjudligi va ularning mazmuni ishonchli va aniq bo'lishini ta'minlanganligi.

Ta'lim dasturlari va ta'lim sifati:

ta'lim dasturlarining tegishli manfaatdor tomonlarni jalb qilgan holda belgilangan talablar asosida ishlab chiqilganligi;

ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda milliy malakalar ramkasi, kasbiy standart va

mehnat bozori talablari inobatga olinganligi hamda ularning davlat ta'lim

standartlari, tegishli kasbiy standartlar va malaka talablariga muvofiqligi;

mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi va ta'lim dasturlarini takomillashtirish uchun monitoring natijalarini hisobga olinganligi;

ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini ishlab chiqilganligi va yo'lga qo'yilganligi;

ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilishi va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilganligi;

talabalar o'qish boshlanishida oldin ta'lim dasturlari, ta'lim maqsadlari va natijalari, baholash usullari to'g'risida ma'lumotga ega ekanligi;

talabalarni o'qitish va baholash bo'yicha innovatsiyalar joriy qilinganligi;

talabalarining ta'lim tashkilotini o'zini-o'zi baholash jarayonida ishtiroki ta'minlanganligi;

talabalarda bilimni mustaqil shakllantirish uchun maxsus platformani joriy etilganligi;

ta'lim jarayonlarini boshqarish yagona axborot tizimining joriy qilinganligi, foydalanish darajasi, ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yilganligi;

ta'lim jarayonlarini boshqarish yagona axborot tizimida ta'lim sifatini monitoring qilish, jumladan talaba, tadqiqotchi va professor-o'qituvchilar o'rtasida ijtimoiy so'rov o'tkazish imkoniyati yaratilganligi;

ta'lim tashkilotining xalqaro ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar bazalariga doimiy a'zoliigi hamda ulardan talaba, tadqiqotchi va professor-o'qituvchilarning erkin foydalanishini yo'lga qo'yilganligi;

ta'lim tashkilotini veb-sayti va unda o'quv ma'lumotlarining berilganligi;

talabalarining elektron ta'lim xizmatlaridan foydalanishi;

elektron kutubxona tizimi va elektron resurslardan foydalanish darajasi;

ta'lim tashkilotini strategik hujjatlari va faoliyatida akademik shaffoflik tamoyillari (shaffoflik, xolislik, ochiqlik, oshkoralik, o'qitish va tadqiqotda erkinlik, ilm-fan va jamiyat oldidagi mas'uliyat, shaxslarga adolatli va teng munosabatda bo'lish, kasbiy xulq-atvor, jamiyatning yuksak ma'naviy qadriyatlarini hurmat qilish, suiiste'mol qilishning va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va proteksionizm, tarafkashlik, bosim yoki shantaj, korrupsiya kabi noqonuniy ta'sirlarni oldini olish)ning tatbiq etilganligi;

plagiatning turli shakllarini (noto'g'ri ma'lumot taqdim etish, qalbakilashtirish, uydirma, intellektual o'g'irlik, nusxa ko'chirish va joylashtirish) oldini olish uchun tegishli mexanizmlar, vositalar va xizmatlarni joriy etilganligi;

akademik shaffoflik tamoyillari va qadriyatlari bo'yicha manfaatdor tomonlarni qo'llab-quvvatlash va kuchaytirish uchun taqdim etiladigan mexanizmlar va xizmatlarning yaratilganligi;

ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari kesimida bitiruvchilarning fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari (bakalavriat, magistratura bitiruvchilarining diplomi o'rtacha ball ko'rsatkichi 70 foizdan yuqori bo'lgan talabalar ulushi 60 foizdan kam bo'lmasligi kerak);

ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari kesimida bitiruvchilarning so'nggi ikki yilda o'z sohasi bo'yicha ishga joylashish (70 foizdan kam bo'lmasligi kerak) ko'rsatkichlari.

Inson resurslari:

ta'lim tashkilotida xodimlarni ishga olish, boshqa lavozimga o'tkazish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha shaffof kadrlar siyosatining mavjudligi hamda ular faoliyatining samaradorligini baholash mezonlarini (KPI) tasdiqlanganligi va unga amal qilinishi;

ta'lim tashkiloti professor-o'qituvchilarining ilmiy pedagogik salohiyati (belgilangan talablar asosida), professor-o'qituvchilar va xodimlarning pedagogik va kasbiy malakasini oshirganligi, stajirovkaga yuborganligi;

professor-o'qituvchilar o'qitadigan fanlarining ular tadqiq qilayotgan soha va mutaxassisligiga muvofiqligi (professor-o'qituvchilar tayanch ma'lumotlarining (mutaxassisligi, ixtisosligi) ular dars beradigan fan(lar)ga muvofiqligi (mos bo'lmagan holda ularning tegishli qayta tayyorlashdan o'tganligi yoki mos ixtisoslik bo'yicha ilmiy unvon, darajaga, davlat va tarmoq mukofotlari, faxriy unvonlarga ega bo'lishi, yakka mualliflikda darslik yoki o'quv qo'llanma (sertifikat asosida) nashr etganligi);

ta'lim sohalari (ta'lim yo'nalishlari) bo'yicha bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining normativlarga mosligi;

ta'lim jarayoniga ilg'or xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlar professor-o'qituvchilari, mutaxassislarining jalb etilganligi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari:

ta'lim tashkiloti tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot faoliyati muassasaning vazifa va strategik maqsadlariga mos kelishi;

ilmiy-tadqiqot faoliyatni amalga oshirish uchun tashqi hamkorlar (oliy ta'lim tashkilotlari, korxonalar va boshqalar) bilan hamkorlikning samarali yo'lga qo'yilganligi;

ilmiy-tadqiqot faoliyati va uning natijalarini muntazam monitoringi hamda tahlilini amalga oshirilganligi;

professor-o'qituvchilarning bajargan o'quv, ilmiy-uslubiy, ilmiy-tadqiqot ishlari (fundamental, amaliy va boshqa ilmiy-tadqiqotlarda ishtiroki, o'quv-metodik ishlanmalar, mahalliy va xalqaro e'tirof etilgan nashrlarda chop etilgan maqolalar), hamda xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridagi iqtiboslar soni (asosiy shtatlar soniga nisbatan, foiz hisobida);

xirsh indeksi (h-indeks) ≥ 5 bo'lgan professor-o'qituvchilar ulushi (asosiy shtatlar soniga nisbatan, foiz hisobida);

professor-o'qituvchilarni ilmiy izlanishlar olib borishi, ularning ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarining tijoratlashtirilganligi hamda natijadorligi bo'yicha rag'batlantirish mexanizmining mavjudligi (asosiy shtatlar soniga nisbatan, bir nafar professor-o'qituvchiga to'g'ri keladigan mablag');

xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-metodik va amaliy konferensiyalarning o'tkazilganligi (xorijiy mutaxassislarning ishtiroki);

ilmiy-tadqiqot bilan shug'ullanuvchi xodimlarning xalqaro mobilligi uchun sharoit yaratganligi (xorijga chiqish va xorijdan qabul qilish).

Talabalarni qo'llab-quvvatlash:

talabalarni oliy ta'lim tashkilotiga o'qishga o'rnatilgan tartib asosida qabul qilinganligi;

talabalar o'rtasida olib borilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning samaradorligi, huquqbuzarliklar, jinoyatlar va shu kabilarning oldini olishga qaratilgan tartiblar;

xodimlar va talabalar uchun sog'lom ma'naviy muhitning ta'minlanganligi;

talabalarga maslahat yoki yordam berish bo'yicha ishlarni tashkil etilganligi;

talabalarining ta'lim xizmatlaridan qoniqishi va bu haqda ularning fikr-mulohazalari tizimli monitoring qilib borilganligi (so'rovnomalar asosida);

talabalarni ehtiyojlari va talablariga ko'ra ta'lim olish uchun resurs va shart-sharoitlarning hamda kasbiy, badiiy, sport va ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish imkoniyatining yaratilganligi;

talabalarni startap loyihalar, ratsionalizatorlik g'oyalari, respublika ilmiy dasturlaridagi g'oliblari (kunduzgi ta'lim shaklida o'qiyotgan umumiy talabalar soniga nisbatan, foiz hisobida);

xalqaro va respublika fan olimpiadalari, loyihalar, dasturlar, sport musobaqalar, ijodiy tanlovlar sovrindorlari, stipendiatlar, sport (jumladan, futbol, futzal va boshq.) turlari bilan muntazam shug'ullanuvchi talabalar ulushi (kunduzgi ta'lim shaklida o'qiyotgan talabalar umumiy soniga nisbatan, foiz hisobida);

talabalar turar joylarining maydoni, yashash uchun mo'ljallangan o'rinlar soni.

Moddiy-texnik ta'minot:

ta'lim tashkilotining bino va jihozlari o'quv, ilmiy, kasbiy faoliyatga bo'lgan ehtiyojlarni, o'qishga qabul qilingan talabalar sonini hisobga olgan holda yetarli darajada ekanligi;

ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining xususiyatlaridan kelib chiqib, malaka talablarida belgilangan amaliy malaka va ko'nikmalarning shakllanishi uchun har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikning o'quv rejasiga binoan fanlar bo'yicha laboratoriya ishlari va amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun

tegishli jihozlar, reaktivlar va boshqalar bilan ta'minlanganligi, metodik ko'rsatmalarning mavjudligi;

laboratoriya ishlarining oliy ta'lim tashkiloti hududidan tashqarida bajarish imkoniyatini yaratilganligi;

axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv-adabiyotlar, kompyuterlar bilan ta'minlanganligi, zallardagi o'rinlar soni, elektron kutubxona tizimining yaratilganligi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan talabalarning inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilganligi, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilganligi.

Ta'lim tashkilotining hudud va respublikaning rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi:

mintaqaviy yoki milliy ehtiyojlarni tahlil qilinganligi hamda mintaqaviy va milliy rivojlanishga qo'shgan hissasi;

ta'lim tashkilotlari reytingini aniqlash bo'yicha vazirlik tomonidan har yili raqamli platforma orqali (onlayn) o'tkaziladigan ish beruvchilar o'rtasida ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari sifati yuzasidan ijtimoiy so'rovnoma natijalari;

so'rovnomada qatnashgan ish beruvchilarning bitiruvchilar bilimi, malakasi va ko'nikmalaridan qoniqishi holati kamida 55 foiz bo'lishi kerak.

IV. Oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi ilmiy va ta'lim tashkilotlarida quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

strategik rejaning mavjudligi va amaldagi maqsadli ko'rsatkichlar va dasturlarga mosligi;

tadqiqotchilarni belgilangan talablar asosida qabul qilinganligi, dissertatsiya ishini tayyorlashning yakka tartibdagi rejasi, ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dastur ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi;

ilmiy rahbar va maslahatchilar faoliyatining belgilangan talablarga muvofiqligi, so'nggi uch yilda himoyaga olib chiqilgan talabgorlar soni.

Ilmiy faoliyat samaradorligi:

yakka tartibdagi rejasiga muvofiq kurslar kesimida tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot natijalari asosida chop etilgan maqola, tezis va intellektual mulk huquqini himoya qiluvchi hujjatlarga egaligi;

dissertatsiya ishini bajarish davomida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida o'tkazilgan seminarlar;

dissertatsiya mavzusi doirasida olingan natijalarning amaliyotga joriy etish holati.

Ilmiy- tadqiqot, moddiy-texnik baza:

ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari va kafedralarda doktorantlar uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishga kerakli shart-sharoitlar, qurilmalar, asbob-uskunalar va boshqalarning mavjudligi, yangilik darajasi, zamonaviyligi va mukammalligi;

ta'lim va ilmiy tashkilot axborot-resurs markazlarida jurnallar, xalqaro nufuzli kutubxona bazalaridan v.b. foydalanish imkoniyati internetga ulangan kompyuter texnikalari mavjudligi;

ta'lim va ilmiy tashkilotida sport bilan shug'ullanish uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligi.

Izlanuvchilar faoliyati monitoringi va o'z vaqtida himoya ko'rsatkichi:

tadqiqotchilar belgilangan shaxsiy ish rejalarining o'rnatilgan tartibda bajarilishi monitoringini olib borilganligi va ko'rilgan choralari;

tashkilotda bajarilayotgan ilmiy loyihalarda ish haqqi to'lash asosida ijrochi sifatida faoliyat yuritayotgan doktorantlar ulushi (umumiy doktorantlar soniga nisbatan);

so'nggi 3 yil davomida doktorantura faoliyati yo'lga qo'yilgan ixtisosliklarga ajratilgan kvota va o'z vaqtida himoya ko'rsatkichlari;

o'z vaqtida himoya qilgan tadqiqotchi va ilmiy rahbar hamda maslahatchilarni rag'batlantirish choralari;

o'z vaqtida himoya qilmagan tadqiqotchilar bilan olib borilgan ishlar, nazorat tadbirlari va samaradorligi, ilmiy rahbar hamda maslahatchilarga nisbatan qo'llanilgan choralari;

tadqiqotchilarning ta'lim xizmatlaridan qoniqishi va bu haqda ularning fikr-mulohazalari tizimli monitoring qilib borilganligi (so'rovnomalar asosida).

V. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim tashkilotlarida quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

ta'lim tashkilotini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli rejasining mavjudligi;

ilmiy-metodik kengash faoliyati va o'quv jarayonining tashkil etilishi;

hisobot va hujjat aylanishini yuritishning raqamlashtirilgan tizim joriy etilganligi;

normativ-huquqiy hujjatlarning ta'lim tashkiloti boshqaruviga tatbiq etilishi va tahlili;

tinglovchilarning ta'lim xizmatlaridan qoniqishi va bu haqda ularning fikr-mulohazalari tizimli monitoring qilib borilganligi (so'rovnomalar asosida).

Davlat ta'lim talablarining o'quv jarayoniga joriy etilishi:

kurslarning davlat ta'lim talablari, o'quv reja (ishchi o'quv rejalari) va fan dasturlari (ishchi dasturlari) bilan ta'minlanganligi va ularning o'zaro mosligi;

tinglovchilar bilimlarini baholashda qo'llaniladigan nazorat vositalarining (testlar, yozma ishlar savollari va boshqalar) fan dasturi mazmunini to'liq qamrab olganligi;

tinglovchilarning fan dasturlarini o'zlashtirish darajasi (bilimi) ta'lim tashkiloti tomonidan o'tkazilgan yakuniy nazoratlarning tahlili.

Moddiy-texnik ta'minot:

qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari xususiyatlaridan kelib chiqib, malaka talablarida belgilangan amaliy malaka va ko'nikmalarning shakllanishi uchun har bir kurs o'quv rejasiga binoan tegishli jihozlar va boshqalar bilan ta'minlanganligi, metodik ko'rsatmalarning mavjudligi.

Pedagog kadrlar salohiyati:

professor-o'qituvchilar tayanch ma'lumotlarining ular dars beradigan malaka oshirish va qayta tayyorlash yo'nalishiga muvofiqligi;

ilmiy salohiyat, so'nggi ikki yilda pedagoglar tomonidan dars jarayoniga joriy etilgan o'quv materiallari;

o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi va ulardan foydalanish samaradorligi.

Ta'limning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi hamda xalqaro hamkorlik faoliyati:

kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlashga bo'lgan talabning o'rganilganligi;

talab yuqori bo'lgan sohalar bo'yicha qo'shimcha pullik kurslar tashkil etilganligi;

kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonlarida yo'nalishlar xususiyatlaridan kelib chiqib korxonalar va tashkilotlarning ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanganlik darajasi;

o'quv jarayonlariga malakali soha mutaxassislarini jalb etilishi;

xalqaro hamkorlik faoliyatining yo'lga qo'yilganligi hamda o'quv jarayonlariga xorijiy mutaxassislarini jalb qilinganligi.

Tinglovchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari:

tinglovchilarning kirish-chiqish testlari natijalari;

malaka va bitiruv ishi mavzulari, kirish-chiqish test savollari bankining shakllantirilganligi hamda yangilanganligi;

bitiruv ishlarining belgilangan talablar asosida rasmiylashtirilishi va sifati.

**Davlat va nodavlat o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlarini
maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish**

MEZONLARI

I. O'rta maxsus ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

akademik litsey istiqbol rejasining bo'ysunuvi bo'yicha tegishli oliy ta'lim tashkiloti bilan hamkorlikda ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi, unda aniq maqsad va vazifalar, ularni bajarish muddatlari belgilanganligi;

akademik litsey rahbar xodimlari ish rejaları, pedagogik kengash rejasining mavjudligi va ularni akademik litseyning istiqbol rejasiga mos ravishda ishlab chiqilganligi.

Ta'lim sifatini ta'minlash:

davlat ta'lim standarti hamda ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, namunaviy o'quv reja va dasturlarning mavjudligi;

ishchi o'quv rejaning namunaviy o'quv rejaga muvofiq ishlab chiqilganligi;

fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlarining namunaviy o'quv dasturlarga muvofiq ishlab chiqilganligi;

axborot-resurs markazida (kutubxonada) zaruriy darslik, badiiy adabiyot va elektron darsliklarning mavjudligi.

Pedagog kadrlar ta'minoti:

o'quv rejadagi fanlar kesimida pedagog kadrlar bilan ta'minlash rejasi va kafolati;

pedagog kadrlar tayanch ma'lumotining dars berayotgan fanlariga mosligi;

pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholash tizimining ishlab chiqilganligi va shu asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning tashkil etilishi.

Ma'naviy-ma'rifiy va sport ishlari:

ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasining mavjudligi;

besh muhim tashabbus bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar rejasi va imkoniyatlari;

Moddiy-texnik ta'minot:

ta'lim jarayonini tashkil etish uchun zaruriy jihozlarning yetarliligi, o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanganligi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maxsus o'quv materiallar bilan ta'minlash rejasining yaratilganligi;

fizika, kimyo va biologiya fanlari uchun laboratoriya xonalarining mavjudligi va jihozlanishi (reaktiv moddalar bilan ta'minlanganligi);

sport zali va maydonlarning mavjudligi, sport inventarlari bilan ta'minlanganligi amaldagi me'yoriy talablarga mosligi.

II. Professional ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

professional ta'lim tashkiloti istiqbol rejasining ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi hamda ijro monitoringi holati;

professional ta'lim tashkiloti rahbar xodimlari ish rejalari, pedagogik kengash rejasi ta'lim tashkiloti istiqbol rejasiga mos ravishda ishlab chiqilganligi.

Ta'lim dasturlari:

namunaviy o'quv reja va dasturlar asosida ishchi o'quv reja va dasturlarni ishlab chiqilganligi hamda ish beruvchilar bilan kelishilganligi;

ta'lim tashkiloti tegishli manfaatdor tomonlarni jalb qilgan holda ta'lim dasturlarini belgilangan talablar asosida ishlab chiqqanligi;

o'quv jarayoni grafigini ishlab chiqilganligi va shu asosida ta'lim jarayonini tashkil etilganligi.

Ta'lim sifatini ta'minlash:

ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha istiqbolli rejalarini ishlab chiqilganligi;

ta'lim sifatini ta'minlash tizimida ta'lim, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va uning samaradorligini ta'minlash va rag'batlantirishga qaratilgan aniq yo'nalishlar mavjudligi.

axborot-resurs markazida (kutubxonada) o'quv, badiiy, siyosiy adabiyotlar mavjudligi;

Pedagogik kadrlar ta'minoti:

pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi va ularning sifat tarkibi;

pedagog kadrlarning belgilangan muddatlarda malakasini oshirganligi.

Moddiy-texnik ta'minot:

tayyorlanayotgan kasb va mutaxassisliklar bo'yicha moddiy-texnika ta'minoti mavjudligi hamda zaruriy xom ashyo materiallari bilan ta'minlanganligi;

o'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanganligi.

III. Oliy ta'lim tashkilotlari quyidagi mezonlarga muvofiq baholanadi.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyati:

strategik rejaning tashkilot missiyasi va yo'nalishlari, milliy va xalqaro yo'riqnomalar bilan muvofiqligi, unda tashkilotni rivojlantirishga, xalqarolashtirishga, yangi kadrlar tayyorlash rejalashtirilgan ta'lim yo'nalish va mutaxassisliklar bo'yicha mehnat bozori talablarini o'rganilganligi, moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga, xodimlar va talabalarga yetarli shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi.

Ta'lim dasturlari:

malaka talabi, o'quv reja va dasturlarning belgilangan tartibda ishlab chiqilganligi hamda unda tegishli manfaatdor tomonlarining talab va ehtiyojlari inobatga olinganligi;

ta'lim tashkilotining o'quv rejasi va dasturlarining davlat ta'lim standartlariga (davlat ta'lim talablariga) yoki xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilgan ta'lim dasturlariga muvofiqligi yuzasidan ta'lim sohasidagi vakolatli organlar tomonidan berilgan ijobiy xulosaning mavjudligi;

fanlar bo'yicha talabalar bilimni baholash mezonlarini ishlab chiqilganligi.

Ta'lim sifatini ta'minlash:

ta'lim sifatini ta'minlash kafolati;

ta'lim tashkilotlarida o'quv, ilmiy va ma'muriy jarayonlarini boshqaruvchi hamda ta'lim sifatini nazorat qiluvchi axborot tizimining mavjudligi.

ta'lim tashkiloti veb-sahifasida mavjud bo'lgan tegishli ma'lumotlarning (*ta'lim tashkilotining ustavi, ta'lim berish tillari, davlat ta'lim standartlari, ta'lim faoliyatining moddiy-texnika ta'minoti haqida ma'lumot, tashkil etilishiga asos, jumladan, qaror, litsenziya (nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun), ta'lim yo'nalishlari, ta'lim faoliyatini amalga oshirish uchun davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikat, ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlari va natijalari, shuningdek ularni amalga oshirish uchun ilmiy-tadqiqot bazasi to'g'risidagi ma'lumot oliy ta'lim uchun v.h*) mavjudligi.

Inson resurslari:

kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yiladigan ta'lim yo'nalishlari (mutaxassislik) fanlari bo'yicha professor o'qituvchilar bilan ta'minlanish darajasi va sifat tarkibi (litsenziya talablari asosida);

professor o'qituvchilarning tayanch ma'lumotining dars o'tadigan fan (lar) bo'yicha mosligi;

ta'lim sohalari (ta'lim yo'nalishlari) bo'yicha bir nafar o'qituvchi hisobiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbatining normativlarga mos bo'lishi.

Moddiy-texnik ta'minot:

binolar va jihozlarning o'quv, ilmiy, kasbiy yoki badiiy faoliyatga bo'lgan ehtiyojlarni, o'quv dasturlarini amalga oshirish usulini va o'qishga qabul qilingan talabalar sonini hisobga olgan holda yetarli darajada ekanligi;

har bir ta'lim yo'nalishi va mutaxassislikning o'quv rejasiga binoan fanlar bo'yicha laboratoriya ishlarining bajarilishi, tegishli jihozlar, reaktivlar bilan ta'minlanganligi, metodik ko'rsatmalarning mavjudligi;

amaliyotlar va laboratoriya ishlarining oliy ta'lim tashkiloti hududidan tashqarida o'tkazilgan taqdirda (ishlab chiqarish korxonasi, tashkilotlar, o'quv-tajriba xo'jaligi va shu kabilarda) bajarish bo'yicha shartnomalar mavjudligi;

ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining xususiyatlaridan kelib chiqib, malaka talablarida belgilangan amaliy malaka va ko'nikmalarning shakllanishi uchun kerakli asbob-uskuna hamda jihozlar bilan ta'minlanish darajasi.

Talabalar uchun yaratilgan sharoitlar:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan talabalarning inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning qulaylashtirilganligi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan talabalar uchun maxsus o'quv materiallar bilan ta'minlash rejasining yaratilganligi;

o'quv, kasbiy va ilmiy adabiyotlarning mavjudligi va o'quv dasturlariga mosligi;

tegishli elektron ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyati ta'minlanganligi;

o'quv mashg'ulotidan tashqari tadbirlar (madaniy, sport va boshqa tadbirlar) uchun sharoitlar mavjudligi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlarini maxsus akkreditatsiyadan o'tkazish jarayonida tegishli bandlar bo'yicha litsenziya talablari va shartlarini bajarishdagi mos mezonlar ko'rsatkichlari inobatga olinadi.

2-MAVZU: TA'LIM TASHKILOTLARI TOMONIDAN ICHKI BAHOLASHNI TASHKIL ETISH (2 soat)

2.1. Ichki baholash ta'lim tashkilotlari rahbarlarining buyrug'i bilan tashkil etiladigan ichki baholash komissiyalari tomonidan Vazirlar mahg'kamasi tomonidan tasdiqlangan qaror ilovasidagi Nizomda belgilangan baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

2.2. Tizimida davlat ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar hamda ta'lim tashkilotlari tashqi baholash boshlanishidan kamida 5 oy oldin tashqi baholashdan o'tkazish jadvalini va kompleks akkreditatsiyaga oid boshqa hujjatlarni Vazirlikdan oladilar.

Tashqi baholashdan o'tkazish jadvali va kompleks akkreditatsiyaga oid boshqa hujjatlar olingan kundan boshlab ta'lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash ta'lim tashkilotlari tomonidan tashkil etiladi va o'tkaziladi.

2.3. Quyidagilar ta'lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholashning asosiy maqsadi hisoblanadi:

ta'lim tashkilotlari yoki o'quv dasturlari (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ixtisosliklar, kasblar va kurslar)ni kompleks akkreditatsiya ko'rsatkichlari va mezonlari asosida baholash;

ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati va mazmunining davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda ta'lim dasturlariga muvofiqligini aniqlash;

ta'lim tashkilotlarining faoliyatidagi mavjud muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish;

ta'lim tashkilotlarini tashqi baholashdan o'tkazishga tayyorlash.


2.4. Ta'lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash natijasida to'plangan ma'lumotlar va materiallar, Vazirlik tomonidan taqdim etilgan ta'lim tashkiloti faoliyatiga oid ma'lumotlar kiritilgan jadvallar tashqi baholash boshlanishidan kamida ikki oy oldin Vazirlikka quyidagi shakllardan birida taqdim etiladi:

a) elektron shaklda – ta'lim tashkiloti rahbarining elektron raqamli imzosi bilan Vazirlikning rasmiy veb-saytidagi maxsus portali (Akkreditatsiya AT) orqali;

b) qog'oz shaklida – ta'lim tashkilotining ishonchli vakili yoxud pochta aloqasi xizmati orqali.

2.5. Belgilangan muddatda hujjatlarning taqdim etilmasligi yoki hujjatlardagi kamchiliklarning bartaraf etilmasligi ta'lim tashkilotining kompleks akkreditatsiyadan o'tkazilmasligiga asos bo'ladi.

Ta'lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholashning asosiy mezonlari



AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA TAN OLINADIGAN XALQARO AKKREDITATSIYA TASHKILOTLARI VA ULARGA QO‘YILGAN TALABLAR (2 soat)

Xalqaro akkreditatsiya – xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarining reestriga kiritilgan, O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan tashkilotlar tomonidan ta’lim dasturlarini akkreditatsiyadan o‘tkazishdan iborat.

Ta’lim tashkilotlarining xorijiy yoki mustaqil ishlab chiqilgan ta’lim dasturlarining xalqaro akkreditatsiyadan o‘tganligi ularning bitiruvchilariga davlat namunasidagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjat berilishiga asos bo‘lmaydi.

Kompleks va maxsus, xalqaro akkreditatsiyaning asosiy prinsiplari quyidagilar hisoblanadi:

- mustaqillik;
- oshkoralik;
- xolislik;
- davriylik va izchillik;
- sifatni uzluksiz yaxshilash;
- inklyuzivlik;
- shaffoflik;
- professionalizm.

Xalqaro akkreditatsiya tashkilotlariga qo‘yiladigan talablar

1. Xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarini O‘zbekiston Respublikasida e’tirof etish va reestriga kiritishning asosiy shartlari quyidagilar:

xalqaro akkreditatsiya tashkiloti sifatida faoliyat yuritishi uchun tegishli sertifikatga ega bo‘lishi;

xalqaro ta’lim sifatini ta’minlash tarmoqlarining to‘la huquqli a’zosi bo‘lishi;

so‘nggi 10 yillikda nufuzli xalqaro reytinglarning eng yuqori 500 talik ro‘yxatida bo‘lgan kamida 5 ta oliy ta’lim tashkilotlarini akkreditatsiyadan (kamida 2 tasi institutsional akkreditatsiyasidan) o‘tkazgan bo‘lishi;

o‘zining rasmiy veb-saytlarida akkreditatsiyadan o‘tkazgan ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning mavjudligi;

umumiy ekspertlarning kamida 30 foizi xorijiy ekspert bo‘lishi.

2. Vazirlik reestriga kiritilgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari faoliyati har uch yilda bir marotaba monitoringdan o‘tkazadi. Monitoringdan o‘tkazish tartibi Vazirlik tomonidan belgilanadi.

3. Xalqaro akkreditatsiya tashkilotining a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan xalqaro ta'lim sifatini ta'minlash tarmoqlari va nufuzli xalqaro reyting tashkilotlari ro'yxati ta'lim sohalari bo'yicha vazirlik tomonidan tasdiqlanadi.

4. Xalqaro akkreditatsiya tashkiloti yoki uning xodimlari muassisligida tashkil etilgan yoxud xalqaro akkreditatsiya tashkiloti xodimi har qanday shartnoma asosida faoliyat olib boradigan ta'lim tashkilotining xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilishiga yo'l qo'yilmaydi.

5. Xalqaro akkreditatsiya tashkiloti tomonidan respublika ta'lim tashkilotlari tashqi baholashdan o'tkazilgandan so'ng baholash xulosasidan bir nusxasi Vazirlikka taqdim etiladi.

6. Xalqaro akkreditatsiya tashkilotining tashqi baholash bo'yicha xulosalarida noto'g'ri yoki qalbaki hujjatlar asosida shakllantirilgan ma'lumotlar aniqlansa, tashqi baholash natijalari tan olinmaydi va xalqaro akkreditatsiya tashkiloti reestrda chiqariladi.

7. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan birgalikda tashkil etilgan ta'lim tashkilotlari hamda O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy davlatlarning ta'lim tashkilotlari filiallari asosiy ta'lim tashkiloti bilan birgalikda xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazilganligi bo'yicha natijalari tan olinadi.

Ushbu ta'lim tashkilotlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tganligi to'g'risidagi yoki unga tenglashtirilgan hujjatni olgandan so'ng, uning nusxasini ikki hafta muddatda Vazirlikka taqdim etishi shart.

8. Ta'lim tashkilotlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish jarayonlarida kuzatuvchi sifatida Vazirlik vakillari ham ishtirok etishlari mumkin.


AKKREDITATSIYANI TASHKIL ETISH JARAYONLARI

№	Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	AQSh	Germaniya	Angliya
1.	BAHOLASH USHLUBLARI	Ta'lim tashkiloti DTS va DTT	Ta'lim tashkiloti ta'lim dasturlari	Ta'lim tashkiloti ta'lim dasturlari	Ta'lim tashkiloti ta'lim dasturlari
2.	AKKREDITASIYA NATIJASI/XULOSASI	Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish, Faoliyatiga ruxsat berish	-	Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish, Faoliyatiga ruxsat berish Moiyalashtirishni to'xtatish	Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish, Faoliyatiga ruxsat berish Moiyalashtirishni to'xtatish
3.	AKKREDITASIYA JARAYONIGA TO'LOV ASOSIDA AMALGA OSHIRILISHI	Nodavlat ta'lim tashkilotlari, moliyaviy mustaqillikka ega ta'lim tashkilotlari to'lov asosida amalga oshiriladi	To'lov asosida amalga oshiriladi	To'lov asosida amalga oshiriladi	To'lov asosida amalga oshiriladi
4.	TO'LOV MIQDORI	470-son qarorda belgilangan tartibda	Akkreditatsiyadan o'tayotgan soha qarab aniqlanadi. To'lovlar summasi ariza berishdan tortib, jarayonlarni tashkil etish o'tkazishni qamrab oladi.	Germaniya akkreditatsiya Kengashi (Akkreditierungsrat) tomonidan to'g'ridan-to'g'ri undirilmaydi. Akkreditatsiya agentliklariga to'lovlarni olish bo'yicha ko'rsatma beradi.	Oliy ta'lim sifatini ta'minlash agentligi (QAA) obunaga asoslangan moliyalashtirish modelida ishlaydi. To'lov yili muassasa turiga qarab farq qiladi.
5.	AKKREDITASIYADAN O'TKAZISH MUDDATLARI	5 yil	5 yildan 10 yilgacha	5 yildan 7 yilgacha	5 yil

XORIY TAJRIBASI

	Институционал мақом			Баҳолаш турлари		Баҳолаш услублари			Аккредитация натижаси/оқибат		
	Мустақил давлат ташкилоти	Мустақил нодавлат ташкилоти	Мустақил давлат + нодавлат	Ички ва ташқи баҳолаш	Фақат ташқи баҳолаш	Таълим ташкилотлари баҳолаш	Таълим дастурлари баҳолаш	Таълим ташкилоти + таълим даструи	Таълим сифатини ошириш бўйича маслаҳат бериш	Фаолиятига рухсат бериш	Молиялаштиришни тўхтатиш
ХОРИЖДА	17 та	7 та	10 та	28 та	1 та	3 та	6 та	17 та	5 та	15 та	15 та
ЎЗБЕКИСТОНДА	√			√				√	√	√	

Буюк Британия, АҚШ, Жанубий Корея, Германия, Япония, Россия ва 28 та Европа давлатлари ўрганилди



2-MAVZU: KOMPLEKS VA MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O‘TKAZISH AXBOROT TIZIMI VA EKSPERTLARGA QO‘YILGAN TALABLAR (2 soat)

Ta’lim tashkilotlari faoliyatini ichki baholash natijasida to‘plangan ma’lumotlar va materiallar, Vazirlik tomonidan taqdim etilgan ta’lim tashkiloti faoliyatiga oid ma’lumotlar kiritilgan jadvallar tashqi baholash boshlanishidan kamida ikki oy oldin Vazirlikka quyidagi shakllardan birida taqdim etiladi:

a) elektron shaklda – ta'lim tashkiloti rahbarining elektron raqamli imzosi bilan Vazirlikning rasmiy veb-saytidagi maxsus portali (Akkreditasiya AT) orqali;

b) qog'oz shaklida – ta'lim tashkilotining ishonchli vakili yoxud pochta aloqasi xizmati orqali.

1. Ta'lim tashkilotlarini kompleks va maxsus akkreditasiyadan o'tkazish jarayonida qatnashuvchi ekspert komissiyalari tarkibini shakllantirish uchun Vazirlikning so'roviga muvofiq, ta'lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlari, ilmiy-tadqiqot institutlarining etakchi olimlari, vazirliklar va idoralar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari mas'ul xodimlari, tegishli ishlab chiqarish korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan ta'lim turlari, ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar va kasblarni hisobga olgan holda Ekspertlar bazasi shakllantiriladi.

Oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotlarini kompleks akkreditasiyadan o'tkazishda ekspert komissiyalari tarkibiga kadr buyurtmachilari va ta'lim oluvchilar kiritilishi tavsiya etiladi.

Ekspert komissiyalari tarkibiga kuzatuvchi maqomidagi, mehnatiga haq to'lanmaydigan a'zolar (xususan, manfaatdor boshqaruv organlarining vakillari, xorijiy ekspertlar va boshqalar) kiritilishi mumkin.

2. Ekspertlarga qo'yiladigan talablar, ularni tanlab olish, malakasini oshirish va tashqi baholash jarayoni bo'yicha seminar-treninglar tashkil etish Vazirlik tomonidan belgilanadi.

3. Ekspert komissiyalari tarkibi va ish muddati ta'lim tashkilotlarining turi hamda ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklar, ixtisosliklar, kurslar va kasblar soniga qarab belgilanadi.

Ekspert komissiyalari tarkibi vazir buyrug'i bilan tasdiqlanadi hamda unga Vazirlik xodimi rahbarlik qiladi.

4. Jalb etilgan ekspert komissiyalari a'zolariga Vazirlik bilan tuziladigan fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida haq to'lanadi.

Ekspert komissiyalari a'zolariga to'lanadigan haq miqdori ularning bajargan ishlariga mutanosib ravishda tomonlar kelishuviga muvofiq belgilanadi.

5. Ekspert komissiyalarining vazifalari quyidagilardan iborat:

ta'lim tashkilotining faoliyatini ichki baholash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarning haqqoniyligini tekshirish;

ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashqi baholashdan o'tkazish;

ta'lim tashkilotidagi ta'lim sifati va mazmunining davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari, ta'lim dasturlariga muvofiqligini baholash;

ta'lim tashkilotlarining faoliyatini tashqi baholash yuzasidan xulosa tayyorlash va Vazirlikka taqdim etish.

Akkreditasiya komissiyasi xulosasi

1. Ta'lim tashkilotlarini kompleks va maxsus akkreditasiyadan o'tkazish uchun Vazirlikda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi akkreditasiya komissiyasi tuziladi. Akkreditasiya komissiyasi tarkibi Vazir buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Akkreditasiya komissiyasi tarkibiga tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar mas'ul xodimlari jalb etilishi mumkin. Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vaziri akkreditasiya komissiyasining raisi hisoblanadi.

2. Ta'lim tashkilotini kompleks va maxsus akkreditasiyadan o'tkazish uchun ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim tashkilotining tashqi baholash xulosasi akkreditasiya komissiyasiga taqdim etiladi.

3. Kompleks va maxsus akkreditasiya xulosasi ta'lim tashkilotlarining tashqi baholash xulosalariga ko'ra amalga oshiriladi.

Kompleks akkreditasiyada ta'lim tashkilotlari faoliyatining davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiqligini etirof etish bilan birgalikda uning maqomi belgilanadi.

Maxsus akkreditasiyada kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan o'quv dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni faoliyati boshlanishi yuzasidan qaror qabul qilinadi.

4. Ta'lim tashkilotini kompleks va maxsus akkreditasiyadan o'tkazish haqidagi qaror akkreditasiya komissiyasiga hujjatlar topshirilgandan keyin bir oy muddatda qabul qilinadi.

5. Ta'lim tashkilotlari maxsus akkreditasiyadan o'tmagan o'quv dasturlari bo'yicha belgilangan tartibda bir yildan so'ng qayta ariza bilan murojaat qilishi mumkin.

6. Ta'lim tashkilotlarining kompleks akkreditasiyadan o'tmagan o'quv dasturlari (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ixtisosliklar, kurslar va kasblar)ni qayta ochish masalasi ta'lim tashkilotlari faoliyatida ko'rsatilgan kamchiliklar to'la bartaraf etilganidan boshlab kamida ikki yildan so'ng tegishli vazirliklar va idoralar yoki mahalliy hokimliklarning takliflari asosida Vazirlik tomonidan ko'rib chiqilishi mumkin.

7. Ta'lim tashkilotini kompleks akkreditasiyadan o'tkazish yuzasidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, ikki hafta davomida ta'lim tashkilotining kompleks akkreditasiyasidan o'tganligi to'g'risida Nizomga 3-ilovada keltirilgan shakldagi sertifikat beriladi.

Sertifikatda ta'lim tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakli, turi, maqomi va sertifikatning amal qilish muddati qayd etiladi.

Sertifikatga Nizomga 4-ilovaga muvofiq shakldagi ta'lim tashkilotining kompleks akkreditasiyasidan o'tgan o'quv dasturlari (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari, ixtisosliklar, kurslar va kasblar) ro'yxati ilova qilinadi.

8. O'quv dasturlarini maxsus akkreditasiyadan o'tkazish yuzasidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, bir hafta davomida ta'lim tashkilotining maxsus akkreditasiyasidan o'tganligi to'g'risida ushbu Nizomga 5-ilovada keltirilgan shakldagi sertifikat beriladi.

Sertifikatda ta'lim tashkilotining tashkiliy-huquqiy shakli, turi, maqomi va sertifikatning amal qilish muddati qayd etiladi.

Sertifikatga Nizom 6-ilovasiga muvofiq shakldagi ta'lim tashkilotining maxsus akkreditasiyasidan o'tgan o'quv dasturlari (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va kasblar) ro'yxati ilova qilinadi.

9. Sertifikat blankalari qat'iy hisobda turadigan hujjatlar hisoblanadi, hisobga olish seriyasiga, tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'ladi.

Sertifikat blankalari namunalari Vazirlik tomonidan ishlab chiqiladi va uning buyurtmasiga ko'ra "Davlat belgisi" davlat-ishlab chiqarish birlashmasida tayyorlanadi. Vazirning birinchi o'rinbosari sertifikat blankalari hisobga olinishi, saqlanishi va ulardan maqsadli foydalanilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

10. Ta'lim tashkiloti qayta tashkil etilgan (o'zgartirish bundan mustasno) yoki tugatilgan taqdirda akkreditasiya haqidagi sertifikat o'z kuchini yo'qotadi.

11. Kompleks va maxsus akkreditasiyadan o'tgan ta'lim tashkiloti (o'quv dasturlari) doimiy ravishda ta'lim sifatini ta'minlashlari shart va bu jarayon Vazirlik tomonidan muntazam nazorat qilib boriladi.

12. Akkreditasiyadan o'tgan ta'lim tashkiloti (o'quv dasturlari) tomonidan ta'limga oid qonunlar buzilganligi, tashqi baholash jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etilmaganligi, amalga oshirilayotgan ta'lim xizmatlari davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga mos kelmasligi yoki sertifikat va unga ilovada belgilangan ko'rsatkichlar doirasidan chetga chiqish holatlari aniqlangan taqdirda, akkreditasiya haqidagi sertifikat akkreditasiya komissiyasining xulosasi asosida Vazir buyrug'i bilan bekor qilinadi.

Yakuniy qoidalar

13. Akkreditasiyadan o'tgan ta'lim tashkilotlari Vazirlikda hisobga olinadi hamda rasmiy veb-saytda yoki ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

14. Tashqi baholash va akkreditasiya natijalaridan norozi bo'lgan ta'lim tashkilotlari rahbarlari yoki ularning muassislari belgilangan tartibda sudga murojaat qilishlari mumkin.

Attestasiyadan o'tkaziladigan ta'lim tashkilotlari

№	Таълим ташкилотлари турлари	Таълим ташкилотлари сони
1.	Олий таълим ташкилотлари <i>(давлат-114, нодавлат-77, ҳарбий-8 ва ҳарбийлаштирилган-2)</i>	201
2.	Профессional таълим муассасалари <i>(касб-ҳунар мактаби-330 та, коллеж-166 та, техникум-208 та)</i>	704
3.	Ўрта махсус таълим муассасалари <i>(ОТМлар тасарруфидаги академик лицейлар сони-71 та, Темурбеклар мактаби академик лицейлари-5 та, Ёш чегарачилар академик лицейи-1 та, ИИВ академик лицейлари-14 та).</i>	91
4.	Малака ошириш ва қайта тайёрлаш таълим ташкилотлари	1203
5.	Олий таълимдан кейинги таълимни амалга оширувчи олий таълим ва илмий ташкилотлари, идора ва ташкилотлар	189
	ЖАМИ	2 388

Ta'lim tashkilotlarini attestasiyadan o'tkazishdagi mavjud holat, muammo va takomillashtirish tadbirlari

МУАММО



Аттестациядан ўтказиладиган таълим ташкилотларининг сони бугунги кунга келиб, **2 388 тани ташкил этмоқда**. Бу рақам **йилдан-йилга ортмоқда**. **Янги ташкил** этилган таълим ташкилотлари айрим таълим йўналишлари **3 йиллик**, магистратура мутахассисликлари **1 йиллик** бўлиб, **2-3 йиллик** битирувчилар **аккредитациядан ўтмай қолмоқда**.



Аттестация жараёнларига соҳадан келиб чиқиб, жалб этиладиган экспертларни вазирлик ходимлари томонидан ўқитиш ва уларни ушбу жараёнларга тайёрлашда ортиқча **вақт** ва **ресурслар** сарфланади. **Доимий** фаолият юритувчи экспертлар гуруҳлари **мавжуд эмас**.



Таълим ташкилотлари **аттестация** жараёнларининг мазмун-моҳияти юзасидан етарлича тушунчага эга эмас. Ички баҳолаш жараёнларида шаффофлик, холислик мезонларига тўлиқ риоя этмаслик ҳолатлари мавжуд.



Аттестация мезонлари бўйича таълим ташкилотлари томонидан **электрон платформа** орқали тақдим этиладиган ҳужжатларни ўрганиш ва хулоса чиқариш тизими рақамлаштирилмаган.



Халқаро аккредитация ташкилотларининг **Ўзбекистон Республикаси** ҳудудида **фаолият олиб боришига рухсат бериш тартиби** белгиланмаган. Шу кунгача 2 та ОТМ: Тошкент давлат стоматология институти **IAAR (Қозғоғистон)** агентлиги томонидан, Тошкент Қимё халқаро университети (ЁДЖУ техника институти) **KAZSEE (Қозғоғистон)** ва **IQAA (Қозғоғистон)** агентлиги томонидан аккредитация ўтган.

ТАКЛИФ

1. Халқаро тажрибалардан келиб чиқиб, аттестация ўтказишининг **баҳолаш мезонларини** такомиллаштириш.
2. Аттестация ва давлат аккредитациядан ўтказиш жараёнларини **босқичма-босқич рақамлаштириш**.
3. Аттестация жараёнларига жалб этиладиган **экспертларнинг малакасини ошириш** ва **СЕРТИФИКАТЛАШТИРИШ** тизимини жорий этиш, ҳамда меҳнатига ҳақ тўлаш тизимини яратиш.
4. **Ички** ва **ташқи баҳолаш** жараёнлари механизмларини ОТМларга етказиш юзасидан **мақсадли тайёрловни** ташкил этиш.
5. Ички баҳолаш бўйича тақдим этиладиган маълумотларни шаффофлиги ва сифати бўйича раҳбарларнинг (*Ректор ва директорлар*) **шахсий жавобгарлигини ошириш**.
6. Вазирлик томонидан халқаро аккредитация ташкилотларининг Ўзбекистон Республикаси **ҳудудида фаолият олиб боришига рухсат бериш тартибини** ишлаб чиқиш, реестрини юритиш.
7. Халқаро аккредитация ташкилотларини Ўзбекистон Республикасида эътироф этилиши ва реестрга киритилишининг **асосий шартлари сифатида** қуйидагиларни белгилаш:
 - халқаро таълим сифатини таъминлаш тармоқларининг (ENQA, EQAR) **тўла ҳуқуқли аъзоси бўлиши**;
 - нуфузли **халқаро рейтингларнинг (ARWU, THE, US News and World Report)** энг юқори **500 талик** рўйхатидаги **камида 10 та** олий таълим ташкилотларини аккредитациядан (*камида бештаси институционал ва таълим дастурлари аккредитациясидан*) ўтказган бўлиши;
 - камида **икки минтақада** ва **бешта давлатда беш йилдан ортиқ** фаолият олиб бориши ҳамда экспертлар рўйхатига **камида 20 нафар халқаро эксперт** киритилган бўлиши.

3-MAVZU: RESPUBLIKA TA'LIM TASHKILOTLARINING MILLIY REYTING BAHOLASH TIZIMINI YURITISH (2 soat)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM MUASSASALARI MILLIY REYTINGI

МАЪЛУМОТЛАР БАЗАЛАРИГА ИНТЕГРАЦИЯЛАНГАН ВА ТЎЛИҚ РАҚАМЛАШТИРИЛГАН ЯНГИ МИЛЛИЙ РЕЙТИНГ АХБОРОТ ТИЗИМИ



Oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylar milliy reytingini yuritish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovasiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023 yil 3 iyuldagi PQ-200-son qaroriga muvofiq respublikada faoliyat yurituvchi oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylar milliy reytingini yuritish tizimini xalqaro reyting tashkilotlarining baholash tizimi asosida takomillashtirildi.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovasiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023 yil 3 iyuldagi PQ-200-son qarorida:

Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi tomonidan ta'lim tashkilotlari faoliyati va ta'lim jarayoniga aralashmagan holda ma'lumotlarni axborot tizimi orqali olish yo'li bilan reyting yuritilishi;

Respublikada faoliyat yurituvchi oliy ta'lim tashkilotlarining reytingini yuritish tizimini xalqaro reyting tashkilotlarining baholash tizimi asosida qayta ko'rib chiqish belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilingan.

oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylar reytingini aniqlash mezonlari va baholash metodikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi;

2024 yildan boshlab tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylar tomonidan reyting ma'lumotlari maxsus axborot tizimiga **har yili 1 sentyabrga qadar** kiritiladi;

axborot tizimiga yuklangan ma'lumotlarning asoslanganligi, ishonchliligi va belgilangan muddatda taqdim etilishi uchun ma'lumotni kiritayotgan ta'lim tashkilotining birinchi rahbari shaxsan javobgar hisoblanadi;

Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining mas'ul tarkibiy bo'linmalari tomonidan ta'lim tashkilotlari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi hamda reyting natijalari **har yili dekabr oyida** Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi:

2024 yil 1 iyungacha qadar oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylar milliy reytingini yuritishda inson omili aralashuvini bartaraf etish maqsadida Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan ma'lumotlarni real vaqt rejimida avtomatik tarzda to'plash va tahlil qilishni nazarda tutuvchi tegishli ma'lumotlar bazalariga integratsiyalashgan hamda raqamlashtirilgan maxsus reyting axborot tizimini yaratish;

respublika ta'lim tashkilotlarining faoliyat samaradorligi yuzasidan ma'lumotlarni tizimli shakllantirish hamda ularni reyting baholash indikatorlariga muvofiq baholash asosida **har yili dekabr oyida** ta'lim tashkilotlarining o'tgan yil uchun milliy reytingini e'lon qilib borish;

xalqaro etakchi reyting tashkilotlarining reyting baholash indikatorlariga muvofiq ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini va milliy reyting ko'rsatkichlari samaradorligini oshirish orqali ta'lim tashkilotlarini xalqaro reytingdan o'rin egallashga yo'naltirish choralari ko'radi.

2025 yil 1 yanvardan boshlab oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim sohalari kesimidagi reytingi yuritiladi.

Oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylarning reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlangan.

**Oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylarning milliy
reytingini aniqlash
tartibi to'g'risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom respublika oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylar reytingini aniqlash tartibini belgilaydi.
2. Oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylarning reytingi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik) tomonidan Vazirlikning tegishli ma'lumotlar bazalariga integratsiyalashgan hamda raqamlashtirilgan maxsus reyting axborot tizimi (keyingi o'rinlarda – axborot tizimi)dagi ma'lumotlar asosida har yili aniqlanadi.
3. Ushbu Nizom:
O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallariga;
“Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik liseylari hamda boshqa harbiylashtirilgan yo'nalishdagi akademik liseylarga nisbatan tatbiq etilmaydi.
4. Oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylar reytingini aniqlash mezonlari va baholash metodikasi Vazirlik tomonidan belgilanadi.

2-bob. Oliy ta'lim tashkilotlari reytingini aniqlash

5. Oliy ta'lim tashkilotlari milliy reytingini aniqlashning **asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:
oliy ta'lim tashkilotlari faoliyati samaradorligini baholash va xolis axborotni keng omma e'tiboriga taqdim etish;
oliy ta'lim tashkilotlarining xalqaro nufuzini oshirish va ta'lim dasturlarini zamon talablari asosida yangilab borish;
ta'lim sifatini oshirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik faoliyati samaradorligini oshirish;
oliy ta'lim tashkilotlari va ishlab chiqarish tashkilotlari o'rtasida integratsiyalashuv jarayonini rivojlantirish;
xalqaro akademik mobillikni rag'batlantirish.

3-bob. Professional ta'lim tashkilotlari va akademik liseylar reytingini aniqlash

6. Professional ta'lim tashkilotlari va akademik liseylar milliy reytingini aniqlashning **asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:
ta'lim tashkilotlari faoliyati to'g'risida xolis axborotni keng omma e'tiboriga taqdim etish;

ta'lim sifatini oshirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, iqtisodiyotning real tarmoqlari uchun malakali kadrlar tayyorlashga zamin yaratish va ilmiy-pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish;

ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va o'quvchi hamda talabalarning oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirish ko'rsatkichlarini oshirish;

yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga ish beruvchi (buyurtmachi) tashkilotlar e'tiborini jalb etish;

ta'lim xizmatlari va mehnat bozori talablaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga ko'maklashish.

4-bob. Milliy reyting baholash ma'lumotlari bazasini shakllantirish

7. Ta'lim tashkilotlari tomonidan reyting ma'lumotlari maxsus axborot tizimiga har yili 1 sentyabrga qadar kiritiladi.

8. Vazirlikning mas'ul tarkibiy bo'linmalari tomonidan oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylar reyting ma'lumotlari tahlil qilinadi hamda reyting natijalari **har yili dekabr oyida** Vazirlikning rasmiy veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

Maxsus axborot tizimida oliy va professional ta'lim tashkilotlari hamda akademik liseylar reytingi majburiy tartibda ta'lim tashkilotlari reestri va jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini (*JShShIR*) *qo'llash orqali* yuritiladi.

9. Maxsus axborot tizimiga:

oliy ta'lim tashkilotlari faoliyati yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltirilgan xorijiy grantlar va xorijiy jamg'armalar mablag'lari, sohalar bo'yicha buyurtmalar asosida o'tkazilgan ilmiy (ijodiy) tadqiqot natijasida olingan mablag'lar hamda davlat grantlari doirasida o'tkazilgan tadqiqotlardan olingan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan;

ta'lim tashkiloti bitiruvchilarining ishga joylashganligi to'g'risidagi ma'lumotlar – O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan;

davlat oliy ta'lim muassasalariga qabul imtihonlarida qatnashgan bitiruvchilar soni va ularning to'plagan ballari bo'yicha ma'lumotlar – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan;

professional ta'lim tashkilotlari va akademik liseylarda faoliyat olib boruvchi malaka toifasiga ega o'qituvchilar soni to'g'risidagi ma'lumotlar – O'zbekiston

Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi tomonidan (Iqtisodiyot va moliya vazirligiga yuborilgan so'rovnoma asosan olingan ma'lumotlar asosida);

fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga hamda ilmiy darajaga ega bo'lmasdan dosent yoki professor ilmiy unvonlariga ega bo'lgan ta'lim tashkilotlari professor-o'qituvchilari to'g'risidagi ma'lumotlar – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan;

oliy ta'lim tashkilotlari va ularda faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilarga tegishli ixtiro, foydali model, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari uchun olingan patentlar, axborot-kommunikasiya texnologiyalari uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan materiallar to'g'risidagi ma'lumotlar – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Sanoat mulki muhofazasi portalidagi mavjud ma'lumotlar mustaqil ravishda Vazirlik tomonidan olingan holda kiritiladi.

10. O'zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgan nodavlat ta'lim tashkilotlari, xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallariga qabul imtihonlarida qatnashgan akademik liseylarning bitiruvchilari soni hamda ularning to'plagan ballari, Vazirlik tomonidan e'tirof etilgan xalqaro nufuzli reyting tashkilotlarining "TOP-1000" talik ro'yxatiga kirgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirgan bitiruvchilar soni va ularning to'plagan ballari bo'yicha ma'lumotlar –mazkur oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan Vazirlik so'roviga ko'ra taqdim etiladi.

11. Vazirlik tomonidan **har yili sentyabr oyida** ish beruvchilar o'rtasida oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining bilim va ko'nikmalariga baho berish maqsadida masofaviy shaklda ijtimoiy so'rovnoma o'tkaziladi.

12. Reyting ma'lumotlari tarkibi hamda reytingni aniqlash mezonlariga asoslangan baholash metodikasiga o'zgartirishlar xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda, Vazirlik tomonidan kiritib boriladi.

5-bob. Ta'lim tashkilotlari reyting ballarini hisoblash tartibi

13. Reyting indikatorlari uchun ballarni hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi: tegishli reyting indikatorlari bo'yicha eng katta ko'rsatkichga ega ta'lim tashkilotlari aniqlanadi;

eng katta ko'rsatkichga ega bo'lgan ta'lim tashkilotlariga shu indikator uchun belgilangan eng yuqori ball beriladi;

boshqa barcha ta'lim tashkilotlarining ballari shu indikator bo'yicha eng yuqori ballga ega bo'lgan ta'lim tashkilotlarining ko'rsatkichiga nisbatan hisoblanadi;

har bir indikator bo'yicha hisoblangan ballar yig'indisi ta'lim tashkilotlari reytingini belgilaydi.

Umumiy reyting ballari teng bo'lib qolgan ta'lim tashkilotlari uchun reyting o'rni, reyting indikatorlari orasida yuqori ball ajratilgan indikatorlar bo'yicha to'plangan ballar farqi bo'yicha belgilanadi. Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha bir xil yakuniy ballga ega ta'lim tashkilotlari uchun bir xil reyting o'rni belgilanadi.

Bitiruvchisi mavjud bo'lmagan ta'lim tashkilotlari uchun tegishli indikatorlar umumiy ball qiymatiga tegishli koeffisient kiritish yo'li bilan inobatga olinmaydi.

6-bob. Yakunlovchi qoidalar

14. Mazkur Nizomdan foydalanish bilan bog'liq yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

15. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni: “Ta’lim to‘g‘risida” (O‘RQ-637, 23.09.2020 y.) <https://lex.uz/docs/5013007>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022 y. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e‘tibor va sifatli ta’lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”. PF-27, 28.02.2023 y. <https://lex.uz/docs/6396146>.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”. №287, 2020 yil 15 may. <https://lex.uz/docs/4814154>.
5. “O‘zbekiston Respublikasining Davlat Standarti. Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021 yil 19 oktabrdagi 35-2021-son buyrug‘iga ilova. <https://lex.uz/docs/5705038>.
6. O‘zbekiston Respublikasi kasbiy standartlar reestri. <https://prof-standart.uz/uz>.
7. Соловова Н.В. Формирование и оценка компетенций: учебное пособие. Самара: Изд-во «Самарский университет», 2015. – 80 с.
8. <https://works.doklad.ru/view/PERFB1B53gw.html>.
9. <https://naukovedenie.ru/PDF/151PVN214.pdf>.
10. <https://hurma.work/ru/blog/kompetentnost-i-ee-vidy/>.
11. <https://www.hr-director.ru/article/67079-kompetentnost-neobhodimoe-uslovie-effektivnosti-18-m8>.
12. <https://www.ecopsy.ru/insights/professionalnye-kompetentsii-hrt-16/>.
13. http://ispu.ru/files/u2/RPD_Perechen_kompetency.pdf.
14. <https://nauka21veka.ru/articles/педагогические-науки/профессиональная-компетентность-понятие-и-признаки-1488569692/>.
15. <https://cyberleninka.ru/article/n/professionalnaya-kompetentnost-vidy-struktura-i-sovremennye-podhody>.
16. <https://inskills.space/professionalnye-kompetenczii-to-eto-takoe-i-kak-nimi-upravlyat/>.
17. <http://www.hrmedia.ru/node/1626>.
18. <http://noudpo.ru/news2/profstandart-news/prof-competen/226.html>.
19. https://www.miep.edu.ru/upload/science/zvezdova_oreshkin.pdf.

20. <https://education.forbes.ru/authors/karta-kompetentsiy>.

21. <https://habr.com/ru/articles/735202/>.

22. <https://rosco.su/press/karta-kompetentsii-cto-eto/>.

23. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi sayti.
<http://edu.uz>.

24. Oliy ta‘lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi sayti.
<http://bimm.uz>.



BIZ BILAN ALOQA



+99871 202 01 20



<https://bimm.uz>



TELEGRAM



INSTAGRAM



FACEBOOK



YOUTUBE